Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda
На посту

O‘zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

2024-yil
28-noyabr
payshanba
№ 48 (4690)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

QORAQALPOG‘ISTON TOMONLARDA

TAXTAKO‘PIR TURIZMI







So‘nggi yillarda yurtimizning turizm jozibadorligini oshirish, shu orqali xalqimizning boy tarixi, madaniyati hamda imkoniyatlarini dunyoga namoyon etish borasida ko‘plab ijobiy ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Birgina o‘tgan yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Taxtako‘pir tumaniga 22 mingdan ortiq xorijiy va mahalliy sayyohlar tashrif buyurgan bo‘lsa, 2024-yilning o‘tgan davri mobaynida bu raqam 80 mingdan ziyodroqni tashkil etmoqda. Sayyohlar xavfsizligini ta’minlash maqsadida ichki ishlar organlari xodimlari fidoyilik bilan xizmat qilishyapti.

USHBU SONDA:

FAOL YOSHLAR — OLTIN ZAXIRAMIZ
3



CHIROY OCHAYOTGAN «NILUFAR»
4





8–9
QO‘SHSAHIFADA — ANDIJON VILOYATI

XIZMAT JOYI – QOROVUL QO‘SHINLARI

QAT’IYATLI MUHAMMADJON

IIV Qorovul qo‘shinlariga qarashli 7536-harbiy qismda leytenant Muhammad Qahramonovni barcha birdek hurmat qiladi. U vazifasini sidqidildan bajarishi, jangovar xizmatda ko‘zga ko‘rinarli yutuqlarni qo‘lga kiritgani uchun hamkasblari mehrini qozonmoqda.



Qarshi davlat universitetining psixologiya yo‘nalishini tugatgan Muhammadjon ushbu universitet akademik litseyida psixolog vazifasida ikki yildan oshiqroq ishladi. Buxoro viloyatidagi harbiy qismda kontrakt asosida xizmat faoliyatini boshlagan bu yigit dastlab 2-batalyonda boshqaruv guruhi operatori lavozimiga xizmatga qabul qilindi. Oddiy askar harbiy xizmatda har tomonlama toblandi. 2022-yildan esa xizmat faoliyatini mutaxassisligi bo‘yicha harbiy qismning tarbiyaviy-mafkuraviy ishlar bo‘linmasi katta ofitser-psixolog lavozimida davom ettirmoqda.

Leytenant M. Qahramonov qismdagi shaxsiy tarkib va askarlarning ruhiy holatini, hissiy va ijtimoiy jarayonlar hamda xatti-harakatlarini o‘rganib, ularga amaliy yordam beradi. Shuningdek, gazeta va jurnallarda «Harbiy xizmatchilar psixologiyasi» mavzularida uning bir qancha maqolalar chop etildi. Qolaversa, u viloyatdagi oliy va o‘rta ta’lim muassasalarida o‘z yo‘nalishi bo‘yicha hamkorlikda psixologik treninglar tashkillashtirib kelmoqda. Uning ma’ruzalari nafaqat talaba va o‘quvchilar, balki o‘qituvchilarga ham muomala madaniyatini o‘rgatishda astqatmoqda.

Bundan tashqari, turli musobaqalar va ko‘rik-tanlovlarda ham faol ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni egallab kelyapti. Joriy yilda IIV Qorovul qo‘shinlari miqyosida o‘tkazilgan «Eng yaxshi psixolog» ko‘rik-tanlovida birinchi o‘rinni oldi. Yaqinda Toshkent shahrida IIV tizimida psixolog xodimlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan «Eng yaxshi psixolog» ko‘rik-tanlovida faol ishtirok etib, Ichki ishlar vaziri tomonidan kitoblar to‘plami bilan taqdirlandi.

Lavhamiz qahramoni xizmatda nimagaki erishgan bo‘lsa, ustozlarining, ayniqsa, podpolkovnik Elyor Gafarovning g‘amxo‘rligi va talabchanligi tufayli ega bo‘ldi. Unga doimo Vatanni sevish, sadoqat bilan xizmat qilish, yurtning taraqqiyoti, tinchligi va mustaqilligi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatish kerakligini tayinlardi. U ustozlarining aytganlariga amal qilib kam bo‘lmadi.

Bolalikdan kitob mutolaasini yaxshi ko‘radigan Muhammadjon bo‘sh vaqt topilgudek bo‘lsa, darrov o‘zi bilan olib yuradigan kitobning qolgan joyidan davom ettiradi. U nafaqat o‘zbek adiblarining asarlarini, balki xorij adabiyotini ham tashnalik bilan o‘qiydi. Asarlardan olgan taassurotlarini hamkasb-u yaqinlariga qisqacha hikoya qilib berib, ularni ham kitob o‘qishga undaydi.

Mirzoqul AHADOV,
o‘z muxbirimiz.
Buxoro viloyati.

YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI



IZLANISH VA O‘RGANISH SAMARASI

Poytaxtimizning Yunusobod tumani IIOFMB psixologik ta’minlash guruhi katta psixologi, leytenant Ilhom Ibragimov ichki ishlar organlarida faoliyat boshlaganiga endigina 3 yildan oshayotgan bo‘lsa-da, u ustozlaridan hamda hamkasblaridan bilmaganlarini o‘rganib amaliyotga tatbiq etmoqda.

Xususan, shaxsiy tarkib o‘rtasida psixologik targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib boradi. Psixodiagnostik o‘rganishlar davomida xodimlarga kun davomida, xizmat olib borish jarayonida fuqarolar bilan bo‘ladigan turli xil ziddiyatli vaziyatlarda agressiyaga berilmaslik, xotirjamlik bilan tushuntirish ishlarini amalga oshirish, qo‘pollik qilmaslik, fuqarolar tomonidan ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan iliq fikrlar shakllanishiga erishish kerakligi to‘g‘risida psixologik tavsiyalar va maslahatlar berib borish faoliyatining ajralmas qismidir.

– Xodimlar bilan o‘tkazilgan suhbatlar davomida ko‘pchiligi oilaviy masalalarni hal etish hamda ijtimoiy ahvol bo‘yicha amaliy yordam so‘rashadi, – deydi lavhamiz qahramoni. – Bu bo‘yicha rahbariyatga murojaat qilinib, har bir xodim alohida o‘rganilib, amaliy yordam berish choralari ko‘rilmoqda.

Leytenant I. Ibragimov xizmatdan bo‘sh vaqtlarida sport bilan ham muntazam shug‘ullanib keladi. U kurash bo‘yicha o‘tkazilgan musobaqalarda sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan.

Ilhomjon kelgusida yetuk kadr bo‘lib yetishishi uchun bilimi, tajribasi va ko‘nikmasini yanada oshirishi lozimligini juda yaxshi his qiladi. Shuning uchun ham izlanishdan, o‘rganishdan erinmaydi.

Sarvar SOBIROV,
o‘z muxbirimiz.
Toshkent shahri.

XIZMATLARDA

INSON SHA’NI – OLIY QADRIYAT

So‘nggi yillarda ichki ishlar organlariga olib kelingan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ularga nisbatan turli shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatini kamsituvchi muomala va boshqa noqonuniy harakatlar sodir etilishining oldini olish borasida qator sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ichki ishlar organlarining ma’muriy binolarida maxsus so‘rovxonalar tashkil etilib, bu joyda protsessual harakatlar o‘tkazilmoqda.



Yuqorichirchiq tumani IIBda ham 2 ta ana shunday so‘rovxona tashkil etildi. Ular olib kelingan shaxslarni ushlab turishni rasmiylashtirish va so‘rov o‘tkazish uchun ixtisoslashtirilgan, belgilangan tartibda videokuzatuv va ovoz yozib olish moslamalari bilan jihozlangan.

So‘rovxonalarda belgilangan me’yor talablari asosida suhbat o‘tkazilib, qilmishining ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab, qonunbuzarlikda gumon qilinayotgan shaxs tergov hibsxonasida olib qolinishi yoki belgilangan vaqtda yetib kelish sharti bilan qo‘yib yuborilishi mumkin.

– Joriy yilning o‘tgan davrida 1926 nafar shaxs bilan ushbu xonalarda protsessual harakatlar olib borilib, barchasining videotasmalari saqlab kelinmoqda, – deydi tuman IIB Tashkiliy bo‘linmasi boshlig‘i, mayor Doniyor Umrzoqov. – So‘rovxonalar tuman IIB Navbatchilik qismi, viloyat IIBB hamda Ichki ishlar vazirligi situatsion markazlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri integratsiya qilingan. Bu protsessual harakatlarning ochiqligi va shaffofligi ta’minlanyapti.

Maxsus so‘rovxonalarning tashkil etilishi yurtimizda inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanishining yaqqol namunasidir.

Mixli SAFAROV,
o‘z muxbirimiz.
Toshkent viloyati.



Insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas.

Hech kimda uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respiblikasi Konstitutsiyasi, 26-modda.

KO'RIK-TANLOV

FAOL YOSHLAR — OLTIN ZAXIRAMIZ

Yurtimizda yosh avlodning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning bilim olishi, mehnat qilishi, o'z qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarishi yo'lida barcha sharoitlarni yaratish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.



Xususan, ichki ishlar organlari sohaviy xizmat xodimlari ham yoshlar bilan doimiy muloqotni yo'lga qo'yib, ularning fikr va tashabbuslarini eshitayotganligi, barcha dastur va rejalarni amalga oshirishda o'g'il-qizlarimizni keng jalb etib, ularga ishonch bildirayotganligi o'z samarasini bermoqda.

Ichki ishlar vazirligi Madaniyat saroyida bo'lib o'tgan IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati hamda Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ)ning Markaziy Osiyoda zo'ravon ekstremizmning oldini olish loyihasi hamkorligida 25-noyabr – Xalqaro xotin-qizlarga zo'ravonlikka barham berish kuni munosabati bilan tashkil etilgan «Xotin-qizlar orasida qonun ustivorligini ta'minlashga qaratilgan eng yaxshi ijtimoiy videoroliklar» mavzusidagi respublika tanlovining tantanali taqdirlash marosimi ham fikrimizga dalil bo'la oladi.

Tanlovda qatnashish uchun jahon Internet tarmog'i orqali mavzuga aloqador bo'lgan 250 ta ijtimoiy videorolik kelib tushgan edi. Ular ishchi guruh tomonidan ko'rib chiqilib, munosib baholandi. Dastlab «Eng yaxshi operator», «Eng yaxshi videomontaj» va «Eng yaxshi infografika» g'oliblarining har biriga O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi bo'lim boshlig'i Nuriddin Polatov diplom, 5 million so'm pul va qimmatbaho sovg'alarni topshirdi.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi sovrini uchun o'tkazilgan tanlov g'oliblari mukofotlandi. Mukofotlarni IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Jasur Sharipov topshirdi. Birinchi o'rin Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 3-bosqich talabasi Shirin Jo'rayevaga, 2-o'rin Toshkent tibbiyot akademiyasi Axborot-resurs markazi yetakchi mutaxassisi Shahnoza Nazarovaga, 3-o'rin esa Andijon shahar IIOFMB JXX HPB Xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, leytenant Maftuna Najmidinovaga nasib etdi. G'oliblarga I, II va III darajali diplom, 15, 12 va 10 million so'm miqdoridagi pul mukofotlari hamda qimmatbaho sovg'alar taqdim etildi.



– Aslida bu tanlovda ishtirok etgan barcha chin ma'noda g'olib, – dedi podpolkovnik J. Sharipov. Chunki ular jamiyat hayotiga befarq emas, balki uni yaxshilash va rivojlantirish tarafdoridir. Bunday yoshlar doimo g'olib va ular xalqimizning chinakam xaloskorlari, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Biz, ichki ishlar organlari xodimlari bu kabi kelajak egalari bilan faxrlanamiz va ularning huquqini ta'minlash va himoya qilishni sharaf deb bilamiz

Tantanali tadbir IIV Madaniyat saroyi Qo'shiq va raqs ansambli xonandalarining diltortar qo'shiqlari bilan yanada fayzli o'tdi.

Abu KENJAYEV,
o'z muxbirimiz.





MAHALLA TINCH – YURT TINCH

CHIROY OCHAYOTGAN «NILUFAR»



Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi eng katta hududlardan biri – «Nilufar» mahallasida 6100 dan ortiq aholi istiqomat qiladi. Hududga biriktirilgan profilaktika katta inspektori, mayor Yerbol Saatbekov qariyb 15 yildan buyon tizimda xizmat qilayotgan bo‘lsa, shundan 11 yili aynan profilaktika yo‘nalishida o‘tmoqda.

Mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Aji Umirov, profilaktika inspektori, kapitan Kamoliddin Ikramov hamda hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori yordamchisi va soliq inspektori bilan birgalikda «yo‘l xaritasi» ishlab chiqilgan bo‘lib, bu hudud osoyishtaligi va farovonligi uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda.



Mahallada jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida targ‘ibot-tashviqot ishlari muntazam yo‘lga qo‘yilgan. Ayniqsa, muqaddam sudlangan yoki jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan fuqarolar hamda jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar bilan doimiy muloqotlar o‘tkazilib, ularning bandligini ta’minlashga, moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatishga alohida e’tibor qaratilyapti. Ushbu sa’y-harakatlarning pirovardida mahallani «sariq» toifadan «yashil»ga o‘tkazish maqsad qilingan.

– Mahallamiz kundan-kunga chiroy ochib, obod bo‘lib bormoqda, – deydi biz bilan suhbatda yoshi yetmishni qoralab qolgan mahalla faoli Yo‘ldosh ota Hotamov. – Mahalla raisi, profilaktika inspektorlari va faollarning hudud osoyishtaligi uchun fidoyilarcha xizmat olib borayotganidan, muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etishda jonbozlik ko‘rsatayotganidan aholi mamnun. Ayniqsa, turizmni rivojlantirish maqsadida «Haqiqat» ko‘chasida keng ko‘lamli qurilish-rekonstruksiya, obodonlashtirish ishlari olib borilishi natijasida yanada chiroy ochmoqda.

Aholi, ayniqsa, uyushmagan yoshlar va uy bekalarining kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishini orttirish, axborot xurujlari davrida aholida sog‘lom fikrlashni shakllantirish, amaliy va fundamental bilimlardan bahramand bo‘lish maqsadida mahallada «Uzsanoatqurilishbank» ATB homiyligida 1000 dona kitob fondiga ega kutubxona foydalanishga topshirilgani quvonarli holat. Bugun bu yerga nafaqat yoshlar, balki katta yoshdagi kitobxonlar ham kelib, o‘zlari qiziqqan asarlarni mutolaa qilishyapti. Bu mahalla ahlining ma’rifati va bilim saviyasini oshirishda alohida o‘rin tutmoqda.

Sarvar SOBIROV,
o‘z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

«ENG YAXSHI PROFILAKTIKA INSPEKTORI» KO‘RIK-TANLOVI

YANGI YUTUQLAR OLDINDA

Katta leytenant Rashit Jumayev kasbiga sadoqatli, bilimli va shijoatli yoshlardan biri. U 2020-yildan buyon Kogon tumani IIB JXX HPBda xizmat qilib kelmoqda. Ayni paytda «Xo‘ja yakshaba» MFYda profilaktika katta inspektori lavozimida xizmat ko‘rsatmoqda.

Rashit zimmasidagi vazifalarni sidqidildan bajarib, ustozlarining o‘gitlari va yo‘l-yo‘riqlariga doim amal qiladi.

Katta leytenant R.Jumayev xizmat faoliyatidan bo‘sh paytlarda badiiy asarlar mutolaa qiladi, sport bilan muntazam shug‘ullanadi. Ko‘pgina musobaqa-yu tanlovlarda ham faol ishtirok etib, muvaffaqiyatga erishmoqda. Xususan, joriy yilda o‘tkazilgan «Eng yaxshi profilaktika inspektori» ko‘rik-tanlovining respublika bosqichida faxrli birinchi o‘rinni egalladi hamda 52 million so‘m pul mukofoti bilan taqdirlandi.

– Kimki maqsad sari qat’iylik bilan intilsa, yaxshi natijalarga erisharkan, – deydi u. – Ustozim, mayor Ilhom Xudoyqulovdan soha sir-asrorlarini mukammal o‘rganib, tajribamni boyitib bormoqdaman. Ularga minnatdorlik bildiraman.

Haqiqatan ham, inson hayotda yuksak marralarni ko‘zlaydi. Shu bois astoydil mehnat qilsa, maqsadiga erishadi. Lavhamiz qahramoni kabi intiluvchan, o‘z kasbining fidoyilari erishadigan yutuqlar esa hali oldinda. Biz unga omad tilab qolamiz.

Mirzoqul AHADOV,
o‘z muxbirimiz.


Buxoro viloyati.



Повышение квалификации

НОВЫЕ ЗНАНИЯ – НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ

В рамках программы «Выездная Академия» организуются занятия для сотрудников территориальных экспертно-криминалистических подразделений ОВД. Цель – углубление процессуальных и методических знаний по проведению судебных экспертиз, совершенствование практических навыков.





Ведущие специалисты кафедры криминалистических экспертиз Академии и ГЭКЦ МВД Узбекистана делятся опытом, знакомят участников с современными методиками и технологиями. Проводятся теоретические занятия, практические тренинги и круглые столы, на которых обсуждаются актуальные вопросы экспертной деятельности.

В текущем месяце состоялись выездные занятия для сотрудников экспертно-криминалистических подразделений главных управлений внутренних дел города Ташкента и столичной области. Участники отметили высокий уровень организации курсов и актуальность обсуждаемых тем.

В ближайшее время планируется проведение занятий для сотрудников ЭКО Департамента обеспечения безопасности на объектах транспорта и туризма МВД.

Фуркат СОБИРОВ,
капитан.



«Актуальные 40 дней»

Сурхандарьинская область

Состоялось совещание с участием начальника Кумкурганского районного ОВД подполковника М. Амантураева и заместителя прокурора района К. Абдурахимова.

Цель – укрепление служебной дисциплины и законности среди личного состава ОВД района. Было подчеркнуто, что основное внимание в вопросах воспитания сотрудников следует уделять не только дисциплинарным взысканиям, но и повышению эффективности воспитательных и профилактических мер для предотвращения возможных негативных ситуаций в будущем.

Особое внимание акцентировано на необходимости постоянного проведения воспитательно-профилактических мероприятий.

Соб. корр.



«Безопасная территория – актуальные 50 дней»

Ташкентская область



В Ташкентской области проводятся масштабные усиленные мероприятия по укреплению общественного порядка, предупреждению преступности и правонарушений.





На инструктаже перед началом службы в городе Чирчике выступил начальник областного Главного управления внутренних дел генерал-майор Тохир Арипов. Он дал сотрудникам, выходящим на ночную смену, рекомендации по аспектам, которым необходимо уделить особое внимание, подчеркнув важность несения службы ответственно и бдительно. После инструктажа сотрудники приступили к обеспечению спокойствия граждан.

Соб. корр.

ТЎЙХАТ ЎРНИДА

СИЙМОСИДА ЗИЁ ТАФТИ

Инсонлар бўладики, эзгу амаллари, меҳнатсеварлиги, ўзи танлаган йўлга бутун онгли ҳаётини тўла-тўкис сафарбар этиши ва фидойилиги билан кўплаб одамларнинг йўлларини ёритади, халқининг ҳаёти мазмунли ва фаровон бўлишига ҳисса қўшишга ҳаракат қилади. «Меҳнат шуҳрати» ва «Дўстлик» орденлари соҳиби, юридик фанлар доктори, профессор Ахтам Турсунов айнан ана шундай қадрли ва маслакдош инсонлардан ҳисобланади.



А. Турсуновнинг эллик беш йиллик фаолиятининг ўттиз йилини илмий ва педагогик соҳага бағишлагани устознинг ўз касбини севиши, бутун вужуди, борлиғини Ватан ва халқ манфаатлари йўлида хизмат қилишни муқаддас бурчи ва ҳаёт эҳтиёжи деб билишини кўрсатади.

Фаолиятини зиё тарқатувчи маскандан бошлаган Ахтам Турсунов Тошкент давлат университетини тугатганидан сўнг Қарши давлат педагогика институти ўқитувчиси ва Тошкент давлат университетининг юридик факультети стажёр тадқиқотчиси, Москва давлат университети юридик факультети аспиранти, Самарқанд давлат университети юридик факультети ассистенти, катта ўқитувчиси, декан ўринбосари, Тошкент давлат университети юридик факультети доценти, Тошкент давлат юридик институтининг факультет декани вазифаларида фаолият олиб борди.

У давлат ва жамоат арбоби сифатида Адлия вазирлиги Ҳуқуқий сиёсатни мувофиқлаштириш ва халқаро ҳуқуқий алоқалар бошқармаси бошлиғи, Ўзбекистон Республикаси Президенти девони етакчи консультанти, Олий Мажлис ҳузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти директори, Мудофаа ва хавфсизлик масалалари қўмитаси раиси, Қонунчилик палатаси Спикери ўринбосари, Ўзбекистон автомобиль ва дарё транспорти агентлиги Автомобилларда ташувлар хавфсизлигини таъминлашни назорат қилиш бошқармаси бошлиғи ўринбосари лавозимларида хизмат олиб борган. А. Турсунов 1994 йилдан 2015 йилгача Олий Мажлис ва кейинги икки чақириқ Қонунчилик палатаси депутати бўлган.

2018 йил март ойидан ИИВ Академияси ҳуқуқбузарликлар профилактикаси кафедраси бошлиғи, кейинчалик кафедра профессори лавозимларида хизмат қилиб келаётган Ахтам Турсунов Ўзбекистон ҳуқуқ соҳасида тадқиқотлар олиб бораётган олимларнинг энг пешқадам вакили ўлароқ, жуда кўп фундаментал тадқиқотларни амалга ошириб, Ватанимиз ҳуқуқий майдонининг мустаҳкамланишига катта ҳисса қўшган олимлардандир.



А. Турсунов 40 га яқин хорижий мамлакатлар (Россия Федерацияси, АҚШ, Хитой Халқ Республикаси, Буюк Британия, Германия Федератив Республикаси, Италия, Швеция, Швейцария, Австрия, Бельгия, Венгрия, Польша, Румыния, Ҳиндистон, Миср Араб Республикаси, Туркияда бўлиб ўтган халқаро симпозиум, конференция ва бошқа анжуманларда ўз маърузалари билан иштирок этган. Унинг 450 дан ортиқ монография, дарслик, ўқув ва услубий қўлланмалари, қонунларга илмий шарҳлари ва мақолалари мамлакатимизда, шунингдек, Россия Федерацияси, АҚШ, ГФР, Австрия, Қозоғистон, Хитой Халқ Республикаси ва бошқа давлатларда чоп этилган.

Профессор А. Турсунов ИИВ Академиясининг 2018–2024 йилларга мўлжалланган истиқболли дастурида кўзда тутилган «Коррупцияга қарши курашишнинг долзарб масалалари» ва «Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини такомиллаштириш» мавзуларидаги илмий-тадқиқот ишлари доирасида фундаментал илмий тадқиқотларни амалга оширмоқда. Хусусан, «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти» ва «Жазони ижро этиш фаолияти» мутахассисликлари бўйича ўқув жараёнини методик жиҳатдан таъминлашда фаол иштирок этиб келмоқда. Жумладан, унинг ҳаммуаллифлигида «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси», «Ички ишлар органлари профилактик фаолияти», «Профилактика инспекторининг маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишларни юритиш фаолияти», «Жазони ижро этиш фаолияти», «Ички ишлар органларининг коррупцияга қарши курашиш фаолияти» ва «Маъмурий ҳуқуқ» фанлари бўйича ўқув-услубий мажмуалар тайёрланиб, таълим жараёнида қўлланилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси ҳузуридаги илмий даражалар берувчи илмий кенгаш аъзоси, ИИВ Академияси ҳузуридаги илмий даражалар берувчи Ёпиқ илмий кенгаш аъзоси ва ушбу илмий кенгаш қошидаги илмий семинарда раис ўринбосари сифатида фаолият олиб борган А.Турсунов 2019 йилнинг январь ойидан ҳозирги кунга қадар ИИВ Академияси ҳузуридаги илмий даражалар берувчи Илмий кенгаш раисидир.

Ахтам Турсунов Коррупцияга қарши курашиш агентлиги ҳузурида ташкил этилган Жамоатчилик кенгашининг ташкил этилишида фаол иштирок этиб, икки йил давомида унинг раиси сифатида фаолият олиб борди. 2023 йилдан ҳозирги кунгача ушбу агентлик ҳузурида ташкил этилган «Экспертлик гуруҳи»нинг раиси ҳисобланади.

Ахтам Саломович нафақат педагог, тадқиқотчи олим, балки юридик фанлар бўйича салоҳиятли ёш олимларнинг илмий даражаларини оширишда катта жонбозлик қилиб келаётган ташкилотчи ҳамдир.Инсоний фазилатларини санаб адоғига етиб бўлмайдиган Ахтам Турсунов ўз ака-укалари, опа-сингиллари қатори, аввало, улуғ, маърифатли падари бузруквори – давлат ва жамоат арбоби Салом ота ва меҳрибон волидалари Орзигул (Қоракўз) аяларнинг дуоларини олган инсондир.


Муборак 70 ёшли тавалуд саналарини нишонлаётган бу камтарин, олижаноб фазилатларга бой, ўз миллатини, Ватанини, халқини севадиган ажойиб фарзандларнинг отаси Ахтам Саломович, назаримизда, донишмандлик ва олимликнинг юқори даражасига етган инсондир.

Эзгу амаллари, илмий-педагогик фаолияти билан ўзбек илм-фанининг ривожига ҳисса қўшган забардаст олим, профессор А. Турсуновга ҳамкасблари, шогирдлари номидан янада баркамол, самарали умр, бардавом сиҳат-саломатлик тилаймиз.

Рустам КАБУЛОВ,
Шариф ҚОБИЛОВ,
ИИВ Академияси профессорлари.

8 декабря – День Конституции Республики Узбекистан

ОСНОВНОЙ ЗАКОН НАШЕЙ ЖИЗНИ



На снимке: *Милана Низамутдинова с преподавателем специальных дисциплин подполковником в отставке Сайфулло Сатаевым.*

Каждый человек задумывается о том, что определяет его жизнь, какие правила и законы помогают чувствовать себя уверенным в будущем. После окончания общеобразовательной школы я поступила в Академический лицей МВД Республики Узбекистан. С детства у меня была мечта надеть форменную одежду сотрудника органов внутренних дел и стать офицером.

В лицее имеются все условия для получения глубоких знаний.

Уголовное и административное право нам преподает подполковник в отставке Сайфулло Сатаевич Сатаев. Он на занятиях детально все разъясняет. Поддерживает нас, помогает.

Для меня Конституция Республики Узбекистан имеет особое значение. Конституция – это правовая основа нашего государства. Она закрепляет права и свободы граждан, обязанности каждого из нас перед государством, а также принципы, на которых строится общество.

Конституция защищает мои права. Это возможность получать качественное образование, развивать способности и стремиться к реализации целей. Статья 50 Конституции Узбекистана гласит, что каждый имеет право на образование, это право дает мне уверенность в своем будущем.

После окончания лицея, хочу поступить в Академию МВД и стать достойным офицером.

Конституция учит меня ответственности. Она напоминает, что наряду с правами у граждан есть и обязанности. Например, уважение к закону, забота о ближних, сохранение окружающей среды. Все это прописано в Основном законе. Осознание обязанностей формирует во мне чувство долга перед страной и обществом.

Мечтаю о том, чтобы в будущем вносить свой вклад в защиту прав граждан и укрепление правопорядка в обществе. Конституция для меня является маяком, который помогает выбрать правильный путь.

8 декабря – государственный праздник, день, который напоминает нам о ценностях, заложенных в Основном законе. Горжусь тем, что живу в стране, где Конституция является опорой для каждого из нас.

Милана НИЗАМУТДИНОВА, ученица 2-го курса Навоийского академического лицея МВД Республики Узбекистан.

Хорезмская область

ВСЕ НАЧИНАЕТСЯ С МАХАЛЛИ

Сотрудники органов внутренних дел, работающие непосредственно с населением, осуществляют свою деятельность во взаимодействии с активом махаллей, изучают вопросы, волнующие население.



Особое внимание уделяется встречам с малообеспеченными семьями. Сотрудники выслушивают обращения, предложения и пожелания граждан, стараются положительно их решать, оперативно находят пути устранения возникающих проблем.

В махалле Бинокор города Ургенча проживает свыше 2,8 тысячи человек. Активно используется помощь общественности для укрепления порядка, положительного решения социально-экономических вопросов населения.

Тщательно изучаются причины совершения правонарушений, факторы, способствующие им.

В махалле разработана «дорожная карта» по дальнейшему совершенствованию работы по профилактике правонарушений и борьбе с преступностью. Деятельность ведется в сотрудничестве с государственными и негосударственными, некоммерческими организациями, общественными объединениями. В рамках целевой программы составлены списки малообеспеченных семей, лиц, склонных к совершению правонарушений.

Проводится адресная профилактическая работа в сотрудничестве с образовательными учреждениями, представителями общественных организаций. Особое внимание уделяется выявлению конфликтных семей, чтобы предотвратить правонарушения, которые могут возникнуть в результате разногласий.

Предотвращение краж и других имущественных преступлений является одним из актуальных вопросов на сегодняшний день. К сожалению, отдельные граждане оставляют имущество без присмотра, в результате чего материальные ценности могут попасть к нечестным на руку людям. Благодаря активной пропаганде данных вопросов удается предотвращать правонарушения на ранней стадии. Совместными усилиями, предпринимаемыми в этом направлении, за прошедший период текущего года на территории нашей махалли не допущено совершения преступлений.

В махалле особое внимание обращается эффективному использованию цифровых технологий и камер наблюдения. На внутренних улицах, в учреждениях дошкольного и школьного образования, на объектах предпринимательства, в общественных местах установлено более 80 камер наблюдения. Планируется установить камеры, распознающие лица и идентифицирующие государственные номерные знаки автотранспортных средств.

Ганижон ЁКУБОВ, старший инспектор профилактики опорного пункта № 30 ОПП ОВД № 4 УКД ОВД города Ургенча, майор.

QO‘SHSAHIFADA –

PATRUL SHAHAR KEZADI

KECHA-YU KUNDUZ XIZMATDA

Asaka shahrida ikki yildan buyon patrul-post xizmatining 1-tumanlararo otryadi faoliyat ko‘rsatmoqda. Avtopatrul va piyoda naryadlar xodimlari bozorlar, jamoat joylari va shahar ko‘chalarida kecha-yu kunduz xizmatda.

– Bo‘linmaning vazifasi jamoat tartibini saqlash, ko‘cha va boshqa jamoat joylarida huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishdan iborat, – deydi PPX otryadi komandiri, podpolkovnik Jalolidin Nizomiddinov – Shahrimiz fuqarolari uchun ko‘chalar ish, do‘kon va ta’lim muassasalari sari harakat qiladigan joy bo‘lsa, biz uchun – patrul-post xizmati xodimlari bevosita xizmat olib boradigan patrul yo‘nalishlaridir. Shuningdek, xodimlarimiz ommaviy tadbirlarda jamoat tartibini saqlashda astoydil xizmat qilishmoqda.



Suratda: *safdorlar Muhammadsodiq Abdug‘aniyev va Yahyobek Solijonov xizmat paytida.*

Ayni vaqtda Asaka shahri ko‘chalarida PPX naryadlari tun-u kun, har qanday ob-havo sharoitida jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash yo‘lida xizmat olib borishyapti. Hodisa joyiga birinchilardan bo‘lib yetib borib, zarur hollarda fuqarolarga yordam ko‘rsatishyapti.

Kechasi navbatchilik paytida qo‘lida og‘ir sumka ko‘tarib yurgan o‘tkinchi shubha uyg‘otishi mumkin. Bir necha bor ana shunday shaxslarni navbatchilik qismiga yetkazib, tegishli bayonnoma tuzgan PPX xodimlari o‘g‘irlik holatlarini ochishga hissa qo‘shishgan. Shuningdek, navbatchilik qismiga olib kelinganlarning ayrimlari qidiruvdagi fuqarolar bo‘lib chiqqan.

KASB FIDOYISI

O‘Z ISHINING USTASI



2005-yili Andijon agrobiznes kollejini tamomlagan Anvarjon Mamajonov Asaka tumani IIB Qo‘riqlash bo‘linmasiga post xodimi sifatida qabul qilingan. Keyinchalik viloyat IIB YHXB YPX inspektori, Asaka, Marhamat, Shahrixon tumanlari yo‘l harakati xavfsizligi xizmati bo‘linmalarida ma’muriy amaliyot inspektori lavozimlarida faoliyat olib bordi. Bundan tashqari, besh yil patrul-post xizmati batalyonida xizmat qildi.

So‘nggi paytlarda kichik serjant Anvarjon Mamajonov viloyat IIB Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma’lumotlar markazining ma’muriy amaliyot bo‘linmasi mutaxassisi lavozimida ishlab kelmoqda.

U ustozlari – katta leytenant Ahmadjon Muqimov va katta serjant Nuriddin Jonboyevni doimo minnatdorlik bilan eslaydi.

– Ichki ishlar organi xodimi bo‘lganimdan hech qachon afsuslanmadim, – deydi lavhamiz qahramoni. – To‘g‘ri, xizmat hech qachon oson bo‘lmagan, ammo muhim ish bilan shug‘ullanayotganingni his qilsang, barcha qiyinchiliklar ortda qoladi. Qolaversa, yaqinlaringning tushunishi va qo‘llab-quvvatlashi ham kishiga kuch, olg‘a intilish uchun turtki beradi.

Kichik serjant Anvarjon Mamajonov ichki ishlar organlarida xizmat qilayotganiga 19 yil bo‘ldi. O‘tgan yillar mobaynida qaysi hududda, qay lavozimda xizmat qilmasin, o‘z ishida haqiqiy professional ekanini isbotladi. Kasb fidoyisi sifatida xizmat intizomiga qat’iy amal qilib, zimmasidagi vazifalarni vijdonan va halol bajarib kelmoqda.

MARDLAR MANGU YASHAYDI

OTAM BILAN FAXRLANAMAN

– deydi leytenant Asadbek Hamzayev

Kapitan Sanjarbek Mahmudov Andijon viloyati IIB Jinoyat qidiruv va terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi tezkor vakili lavozimida xizmat qilgan. 2005-yil 13-may kuni el-yurt tinchligi va osoyishtaligini himoya qilish yo‘lida terrorchilar bilan to‘qnashuvda qahramonlarcha halok bo‘ldi. U vafotidan keyin «Jasorat» medali bilan taqdirlandi.



Suratda: *marhum kapitan Sanjarbek Mahmudov.*

Qahramonning oilasida uning xotirasi cheksiz ehtirom bilan e’zozlanadi. Shu bois o‘g‘li Asadbek kasb tanlash borasida otasining izidan borishga qaror qilgan. IIV Andijon akademik litseyini tamomlab, vazirlik Akademiyasiga o‘qishga kirdi. Bu yil Andijon shahar IIOFMB huzuridagi Tergov bo‘limida xizmat faoliyatini boshlagan yosh xodimga ayni paytda katta tergovchi, mayor Farrux Siddiqov murabbiylik qilmoqda.



– Mohir tergovchi bo‘lish uchun mas’uliyatli, tirishqoq, mehnatsevar bo‘lish va, albatta, odamlar psixologiyasini tushunish zarurligini angladim, – deydi leytenant Asadbek Hamzayev. – Ustozim va boshqa tajribali xizmatdoshlarimdan ko‘p narsalarni o‘rganyapman. Amakim – iste’fodagi podpolkovnik Sarvarbek Mahmudov ham o‘z maslahatlarini sira ayamaydi. Bor kuch-g‘ayratimni, bilimlarimni safarbar etib, otam singari jasur, kasbiga sodiq xodim bo‘lishni niyat qilganman. O‘z o‘rnida, el-yurt tinchligi uchun jonini fido qilgan padari buzrukvorim bilan faxrlanaman.

Asadbekning ta’kidlashicha, padari buzrukvori farzandlari uning ishini davom ettirishini juda-juda xohlagan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Asadbek va akasi Shohjahon bugun ichki ishlar organlarida faoliyat ko‘rsatyapti. Chunonchi, Shohjahon Hamzayev viloyat IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi katta tergovchisi, unvoni – katta leytenant.

Ichki ishlar organi xodimi bo‘lish har kimning qo‘lidan kelavermaydi. Ota kasbini davom ettirish esa, kishi zimmasiga ikki karra mas’uliyat yuklaydi. Katta yo‘lga otlangan yosh xodim, leytenant Asadbek Hamzayev ulug‘vor maqsadiga erishishiga ishonchimiz komil.

ANDIJON VILOYATI

SULOLA

HAMFIKR, YELKADOSH BO‘LISH – KATTA BAXT

Nishonovlar sulolasining asoschisi Nabijon aka Ikkinchi jahon urushidan keyingi og‘ir yillarda uchastka inspektori, jinoyat qidiruv xizmati xodimi bo‘lib faoliyat yuritgan. Kapitan unvonida, Andijon shahridagi bolalarni vaqtincha qabul qilish muassasasi boshlig‘i lavozimidan pensiyaga chiqqan.

Katta o‘g‘li Sodiqjon uning izidan borib, IIV Toshkent oliy maktabini tamomlagach, viloyat IIBning turli bo‘linmalarida xizmat qildi. Andijon shahar IIB Jinoyat qidiruv bo‘linmasi, shahar IIB 1- va 2-bo‘linmalari hamda Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish markazi boshlig‘i lavozimlarida faoliyat ko‘rsatdi. S.Nishonov viloyat IIB PPX va JTSB tumanlararo patrul-post xizmati otryadi komandiri lavozimidan, podpolkovnik unvonida pensiyaga chiqdi.

Nabijon akaning ikkinchi o‘g‘li, iste’fodagi mayor Baxtiyor Nishonov Andijon shahar IIBda ekspert-kriminalist bo‘lib, ko‘p yillar sidqidildan xizmat qildi, yuzlab jinoyatlarni ochishga katta hissa qo‘shdi.

Hozirgi kunda sulola ishini davom ettirayotgan nabira, safdor Samandar Nishonov viloyat IIB YHXB YPX inspektori lavozimida faoliyat olib bormoqda.

Yana bir nabira – serjant Iskandarbek Nabiyev ham ichki ishlar organlarining turli sohaviy xizmatlarida faoliyat yuritib, Andijon shahar IIOFMB Probatsiya bo‘limi inspektori etib tayinlandi. Iskandarbek xizmatdan ayrilmagan holda Andijon davlat universitetini tamomladi. U ham bobosi kabi ofitser bo‘lish arafasida.

– Tanlovimning asosiy sababi bobom va otam ishini davom ettirish bo‘lgan, – deydi serjant Iskandarbek Nabiyev. – Mazkur kasb sohiblari yurt tinchligi, xalq osoyishtaligi uchun ko‘pincha o‘z hayotlarini xavf ostiga qo‘yishadi. Bu – g‘oyat sharafli burch. Yurtimizda yashayotgan insonlar osoyishtaligini qo‘riqlab, ularning koriga yarashni istayman. Ishonamanki, oilam men bilan faxrlanadi.



Suratda: *iste’fodagi podpolkovnik Sodiqjon Nishonov o‘g‘illari Iskandarbek va Samandar bilan.*

Nishonovlar sulolasi uchun birdamlik, vatanparvarlik, sharaf va or-nomus shunchaki oddiy so‘zlar emas.

– Bolalar biznikidek oilalarda voyaga yetsa, ichki ishlar organlaridagi xizmat nima ekanini erta anglaydi. Oilamdagilarning hammasi kasbimizning o‘ziga xos jihatlarini juda yaxshi bilishadi. Bu o‘zaro tushunish va ishonch shakllanishiga xizmat qiladi. Oilada bir-biriga hamfikr, yelkadosh bo‘lish – katta omad va baxt, – deydi iste’fodagi podpolkovnik Sodiqjon Nishonov.

ЖЕНЩИНЫ И ОБЩЕСТВО

НЕПРОСТЫЕ СУДЬБЫ

Вечером в дверь кабинета инспектора профилактики махалли имени Бабура старшего лейтенанта Собиржона Иминжонова кто-то робко постучал. За дверью стояла пожилая женщина…

– Извини, сынок, за поздний визит, меня из дома выгнала невестка, – слезно прошептала она. – Мне некуда идти…

Сердобольный инспектор пристроил на ночь пожилую женщину у жителей махалли. Утром он рассказал о ней старшему инспектору по вопросам женщин УКД ОВД по городу Андижану лейтенанту Мафтунахон Нажмиддиновой.

– Надо принимать меры, – сказала лейтенант М. Нажмиддинова. – Навестим ее семью и изучим обстановку.

Как оказалось, у Кароматхон (имя изменено) был 37-летний сын, Козимжон, – инвалид первой группы, который не мог самостоятельно передвигаться. В интернете парень познакомился с женщиной, Нодирахон, из Ташкентской области. Молодые люди стали переписываться. Нодирахон была замужем, развелась, воспитывала трехлетнюю дочь. Козимжон написал, что является инвалидом и страдает от одиночества. Молодые люди решили создать семью. Женщина приехала в Андижан с дочерью и стала жить в новой семье. Поначалу она вела себя достойно, ухаживала за мужем, помогала по хозяйству 80-летней свекрови.

Но спустя время стала грубить, обзывала мужа нецензурными словами. Последней каплей стал случай, когда невестка выгнала свекровь из дома.

– Было принято решение выдать Кароматхон охранный ордер. С невесткой провели профилактическую беседу. После этого ее словно подменили, она поняла, что может ответить по закону, стала вести себя прилично, – рассказывает лейтенант Мафтунахон Нажмиддинова.

– В 2024 году нами выдано 516 охранных ордеров. В областном центре 94 махалли. На профилактическом учете состоят 677 женщин, среди них есть ранее судимые. С ними проводится индивидуальная профилактическая работа, принимаются меры к их трудоустройству, – продолжила Мафтунахон.

М. Нажмиддинова в ОВД с 2020 года. На должности сравнительно недавно, но за короткий срок заслужила доверие и уважение женщин. Вместе с мужем Илхомжоном, который работает преподавателем в Андижанском государственном университете, они воспитывают двух дочерей, Иймонахон и Хадичабегим.



На снимке: *лейтенант Мафтунахон Нажмиддинова во время службы.*

Qo‘shsahifa materiallarini o‘z muxbirimiz Boris KLEYMAN tayyorladi.

MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT DARSI

TARAQQIYOT QOMUSI



2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e’lon qiluvchi ezgu g‘oya hamda maqsadlarimiz bilan boshlanuvchi yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarning mustahkam huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Jumladan, hokimiyatning bo‘linish prinsipi va bir-birini tiyib turish hamda manfaatlar muvozanati tizimining zamonaviy konsepsiyasi hisobga olingan holda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Prezident va Hukumat o‘rtasida vakolatlar qayta taqsimlandi.

Konstitutsiyada O‘zbekistonning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida belgilanganligi davlat nafaqat demokratik tamoyillarga amal qilishi, shu bilan birgalikda, uning xalqni huquqiy va ijtimoiy jihatdan muhofaza qilish majburiyati mavjud ekanligini ta’kidlandi. Davlat hokimiyati organlari tomonidan mazkur sohalarga alohida e’tibor qaratilishiga urg‘u berilib, har bir mansabdor shaxsning jamiyat oldidagi mas’uliyatini oshirish lozimligi yana bir bor qayd etildi.

Bosh qomusimiz talablaridan kelib chiqib, birgina o‘tgan yilning o‘zida ijtimoiy sohaga ajratilgan mablag‘lar 134 trillion so‘mni tashkil etdi. Ushbu mablag‘larning 2016-yilga nisbatan 5,6 barobar ko‘payganligi, albatta, quvonarli hol. Shuningdek, mulkiy huquqlarning ishonchli himoyasini ta’minlash, sog‘liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, nuroniylar, xotin-qizlar va yoshlarga doimiy e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, oila, onalik va bolalikni himoya qilish bo‘yicha keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbarining «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida»gi farmoyishi asosida Bosh qomusimizning o‘ttiz ikki yilligini munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlash, unda belgilangan xalq hokimiyatchiligi, inson qadri, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik kabi ezgu g‘oyalar atrofida fuqarolarni jipslashtirish choralari ko‘rilyapti. **«Konstitutsiya — erkin va farovon hayot garovi!»** degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan ko‘plab tashkiliy-amaliy hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda.

Nafsilamrini aytganda, har birimiz taraqqiyotimiz va erkin hayotimiz kafolati bo‘lmish Bosh qomusimizni o‘rganishimiz, targ‘ib qilishimiz lozim. Zero, odamlar o‘z huquq va erkinliklari, burch hamda majburiyatlarini bilgan, ularga amal qilgan va boshqalardan ham rioya etishini talab qila oladigan jamiyatda chin fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi, bunday jamiyat so‘zsiz taraqqiy etadi.

Salohiddin HAMROYEV,
katta leytenant.



Biz inson qadr-qimmati va manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha boshlagan islohotlarimizni yangi konstitutsiyaviy makonda yanada qat’iy davom ettiramiz. Xalqimizning xohish-irodasiga binoan Asosiy qonunimizda o‘z aksini topgan tamoyillarni to‘liq ro‘yobga chiqarishimiz va hayotimizning ajralmas qismiga aylantirishimiz lozim.

Shavkat MIRZIYOYEV

8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni

BILIB QO‘YGAN YAXSHI

Dunyoda ilk qabul qilingan konstitutsiyalardan biri AQSH Konstitutsiyasi hisoblanadi. 1787-yilda qabul qilingan



ushbu hujjatga bugungi kunga qadar jami yigirma yetti marotaba o‘zgartirish kiritilgan.

* * *

Hindiston Konstitutsiyasi 1950-yilda kuchga kirgan. Mazkur Asosiy qonun Buyuk Britaniyaning huquqiy an’analari bilan birga AQSH,



Irlandiya, Kanada, Avstraliya, sobiq SSSR, Germaniyadagi Veymar Respublikasi, Yaponiya va boshqa ba’zi mamlakatlar konstitutsiyalarining alohida qoidalarini ham o‘zida aks ettirgan. Hindiston Konstitutsiyasi dunyodagi eng katta Konstitutsiya hisoblanadi.

* * *

Yaponiya Konstitutsiyasi 1947-yilda qabul qilingan. Ushbu huquqiy hujjat uchta asosiy tamoyilga asoslanadi.



Bular xalq suvereniteti, inson huquqlarini hurmat qilish, millatning suveren huquqi sifatida urushdan voz kechish tamoyillaridir.

USTOZ-SHOGIRD

MAQSADLAR MUSHTARAKLIGI – MUVAFFAQIYAT KALITI

Anvarjon Mirzayevning Qo‘shtepa tumanidagi «Qoraqushchi» mahalla fuqarolar yig‘iniga rais bo‘lganiga endigina 11 oy bo‘ldi. Biroq u mahalla aholisining ham, rahbarlarning ham ishonchini to‘la oqlamoqda. Eng muhimi, mahalla hududida oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar sodir etilmasligiga ham o‘z hissasini qo‘shib kelyapti.



– Yangi ishga kelganimda Anvar aka xuddi shu mahallada profilaktika inspektori bo‘lib ishlardi, – deydi profilaktika katta inspektori, mayor Nodirbek Yunusov. – O‘shanda boshqa mahallada ishlasam ham, unga shogird tutinib, hujjat tayyorlashni o‘rganganman. Ustozim pensiyaga chiqqach, inspektor bo‘lib ishlash menga nasib etdi. To‘g‘risi, mahalla kriminogen og‘ir hudud edi. Buning uchun mahalla raisi ham boy tajribaga ega, aynan ichki ishlar organlarida xizmat qilgan inson bo‘lishi kerakligini chuqur o‘ylab, rahbarlarga Anvar akani raislikka nomzod sifatida qilish taklifini aytgandim. Mana, ustozim bilan birgalikda bizga bildirilgan ishonchni oqlayapmiz.

Katta inspektorning qayd etishicha, raqamlashtirish jarayonlarida mahalla hududiga 60 taga yaqin kuzatuv kameralari qo‘yilgan bo‘lib, ulardan asosiy kirish yo‘llariga o‘rnatilgan 12 tasi bevosita xizmat xonasiga integratsiya qilingan. Joriy yilning o‘zida xuddi shu kameralar orqali 10 dan ortiq salbiy holatlarning oldi olindi.

– Ilgari «Qoraqushchi»da inspektor bo‘lib ishlaganim juda qo‘l kelyapti. Odamlarni yaxshi taniyman. Har bir oilani besh qo‘lday bilaman. Jinoyatchilikni jilovlashga harakat qilyapmiz, – deydi rais biz bilan suhbat yakunida.

Abduvosit SIDIQOV,
o‘z muxbirimiz.
Farg‘ona viloyati.

AYOL VA JAMIYAT

24-betdagi ikkinchi savolning javobi: Yozuvchi Rey Bredberi bu javob: Uolt Disney. U 1955-yil 14-iyulda Disneylendni ochgan edi.

XOTIN-QIZLAR UCHUN HUQUQIY MADANIYAT MUHIM

– deydi inspektor, kapitan Vazira Berdimurodova

Xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli uddalash barobarida, oilasida mehribon ona, rafiqa xotin-qizlarimiz talaygina. Samarqand shahar IIOFMB 9-sonli IIB xotin-qizlar masalalari bo‘yicha inspektori, kapitan Vazira Berdimurodova ana shunday xodimalardan biridir.

Uning kasb tanlovi tasodifiy bo‘lmagan. Aniqrog‘i, bolaligidan uzoq yillar ichki ishlar organlarida samarali xizmat qilgan otasi, ayni paytda iste’fodagi podpolkovnik Normurod Berdimurodovga havas qilib voyaga yetgan.

– Otam ichki ishlar organlari xodimi bo‘lganidan doim faxrlanganman, – deydi lavhamiz qahramoni. – Ulardek xizmat libosini kiyish orzusi yo‘lida otamning yo‘l-yo‘riq, maslahatlari menga kuch, ishtiyoq bag‘ishlagan. Keyinchalik taqdir yo‘llarim ham ichki ishlar organlari xodimi, hozirda iste’fodagi mayor Furqat Ergashevga tutashdi. Biz oilada ham, xizmatda ham bir-birimizga qo‘shqanot bo‘ldik. Qaynotam iste’fodagi polkovnik Qobiljon Ergashev ham shu sohada uzoq yillar samarali xizmat qilganlar.

2011-yilda Samarqand davlat universitetini tamomlagan Vazira shu yilning o‘zida ichki ishlar organlariga xizmatga kirgan. Dastlab Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazida xizmat qildi. 2019-yildan Samarqand shahar IIOFMB 9-sonli IIB xotin-qizlar masalalari bo‘yicha inspektori lavozimida xizmat qilib kelmoqda. U xizmat olib borayotgan hududda 27 ta mahalla va 45 mingdan ziyod xotin-qizlar bo‘lib, ular orasida kam ta’minlangan, huquqiy himoyaga muhtojlar ham bor. Yil boshidan buyon tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan 48 nafar xotin-qizga himoya orderi berildi, bunda takroriy holatlar ham bo‘ldi.



Kapitan Vazira Berdimurodovaning ta’kidlashicha, fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlarning sabablaridan biri oilaviy-maishiy munosabatlardir. Tashvishlisi, fuqarolar har doim ham zudlik bilan murojaat qilmaydi.

– Yaqinda bir oilada kelishmovchilikning oldini oldik, – deydi kapitan Vazira Berdimurodova. – Er muntazam ravishda homilador xotinini rashk tufayli kaltaklab kelgan. Biz ayolga himoya orderi berdik. Uning erini esa ishga joylashtirdik. Ba’zi oilalarda zudlik bilan aralashuvni talab qiladigan oilaviy mojarolar ham bo‘lib turadi. Xodimlar nizo va janjallarni o‘z vaqtida bartaraf etish asnosida yanada og‘ir oqibatlarning, jumladan, jinoyatlarning oldi olinadi, albatta.

Lavhamiz qahramoni xonadonida besh farzandning mehribon onasi. U kutilmagan tasodiflarga to‘la qaynoq ish kunidan keyin hamisha sevimli oilasi bag‘riga intiladi.

– Ish bilan bir qatorda, farzand tarbiyasiga ham e’tibor qaratishim zarur, – deydi u. – Oilam mening suyanchim, ertangi hayotimdagi bir-biridan go‘zal kunlar uchun ruhlantiruvchi sevimli oshyondir. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida tahsil olayotgan qizim bilan faxrlanaman. U uchta xorijiy – italyan, ingliz va rus tillarini yaxshi biladi. Har bir ona uchun farzandlarining muvaffaqiyatini ko‘rishdan ortiq baxt yo‘q.

Kapitan V. Berdimurodova har bir hayotiy vaziyatni tushunish, aholi bilan ishonchli munosabatlar o‘rnatishni xizmatining muhim jihati, deb biladi. Bunda u fuqarolar, ayniqsa, xotin-qizlar zarur vaziyatlarda yordam so‘rab murojaat qiladigan joyi borligini bilishi kerak, deb hisoblaydi. Va hamisha ularning huquqiy savodxonligini oshirishga harakat qiladi.

Zamira BOLTAYEVA,
o‘z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.

Урок духовности и просвещения

ПРАВОВАЯ ОСНОВА РАЗВИТИЯ СТРАНЫ

(8 декабря – День Конституции Республики Узбекистан)

«Конституция является прочным фундаментом нашей национальной государственности и суверенитета, всех достигнутых сегодня успехов и рубежей, наших устремлений на пути строительства демократического правового государства.

Шавкат МИРЗИЁЕВ.



Обновленная Конституция Республики Узбекистан – подлинное выражение воли народа, гарантия необратимости реформ, направленных на строительство Нового Узбекистана. В ней закреплены ключевые положения – Узбекистан является суверенным, демократическим, правовым, социальным и светским государством.

Для достижения поставленных целей, организации деятельности государственных органов согласно новым правовым условиям в республике ускоренными темпами осуществляется приведение законодательства в соответствие с конституционными нормами. Результаты реформ в данной сфере получают широкое признание, в том числе и на международной арене. За последние годы Узбекистан поднялся на 32 позиции в Индексе восприятия коррупции, на 28 позиций – в Индексе свободы прессы, на 13 позиций – в Индексе верховенства права.

Согласно ст. 7 Основного закона «народ является единственным источником государственной власти». Исходя из этого последовательно продолжаются реформы по расширению участия граждан в управлении государством и обществом.

В Узбекистане внедряется практика прямого применения Конституции во всех сферах жизни. Реформа судебной системы гармонизируется с новым конституционным полем. При этом приоритетной задачей является ориентирование деятельности судебных и правоохранительных органов на защиту прав, свобод и интересов человека. В целях реализации принципа соразмерности правового воздействия пересматриваются свыше 150 мер в законодательных актах.





В ст. 26 Конституции закреплен принцип неприкосновенности чести и достоинства человека, она гласит: «Ничто не может быть основанием для их умаления». Поэтому важное значение приобретают меры по недопущению действий, противоречащих правам и законным интересам человека. Особое внимание уделяется внедрению механизмов совершенствования деятельности Уполномоченного по правам человека Олий Мажлиса, Детского омбудсмана.

Основная цель государственных органов – обеспечение благополучия и достойной жизни народа, устранение бюрократических барьеров в отношениях между гражданином и государством. С этой целью цифровизировано около 300 видов государственных услуг. И деятельность эта неуклонно продолжается.

Особое внимание уделяется изучению Конституции на основе концепции «Новый Узбекистан – просвещенное общество», принята Национальная программа действий. «Необходимо начинать изучать Основной закон с детского сада, полностью вовлечь в этот процесс образовательные учреждения всех уровней, разные слои населения, особенно государственных служащих», – подчеркнул глава государства. Долг каждого из нас – чтить Конституцию, всесторонне изучать и следовать ей, прививать молодежи уважение к гуманистическим ценностям, на которых базируется Основной закон.

В достижении верховенства Конституции и законов нет более эффективного средства, чем общественный контроль, являющийся фактором развития гражданского общества. В этом плане важна роль дальнейшего повышения подотчетности госорганов и должностных лиц общественности. В республике последовательно реализуются меры по поддержке деятельности негосударственных некоммерческих организаций, СМИ, углублению социального партнерства. Особое внимание уделяется развитию институтов гражданского общества. В частности, за последние годы количество ННО увеличилось почти на 40 процентов.

Процесс обновления Узбекистана, переход от национального возрождения к национальному прогрессу не происходит легко и одномоментно. Говоря об этом, Президент Шавкат Мирзиёев подчеркнул: на этом пути «Конституция Республики Узбекистан будет для нас мощным источником сил, энергии и вдохновения. Опираясь на Основной закон, вместе с нашим многонациональным, великодушным и благородным народом – творцом такой уникальной Конституции – мы обязательно достигнем своих высоких целей».

Азиз ИМАМОВ,
кандидат юридических наук,
майор.

Демократия в Республике Узбекистан базируется на общечеловеческих принципах, согласно которым высшей ценностью является человек, его жизнь, свобода, честь, достоинство и другие неотъемлемые права.

Демократические права и свободы защищаются Конституцией и законами.

Статья 13 Конституции Республики Узбекистан.

SOHAVIY XIZMATLARDA

RAQAMLAR ORTIDAGI ZAHMATLAR

Faoliyatimizda qilingan ishlar sarhisobini raqamlar orqali ifodalashga odatlanganmiz. Namangan viloyati Transportda xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasi xodimlari jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlashga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Bu, o‘z navbatida, infratuzilma obyektlari, shu jumladan temiryo‘l vokzallari, bekatlar, parklar, yuk hamda yo‘lovchi poyezdlarda tovar-moddiy boyliklari hamda yo‘lovchi va fuqarolarning shaxsiy mol-mulki, shuningdek, pochta jo‘natmalari bilan bog‘liq o‘g‘irlik jinoyatlarining oldini olishga qaratilgan.





Namangan xalqaro aeroporti, Namangan va Pop temiryo‘l vokzaliga kelgan fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash hamda jinoyatchilikning oldini olish borasida PPX xodimlari tomonidan yil boshidan buyon 2 nafar qidiruvdagi shaxs ushlangan hamda jinoyat qidiruv xizmati xodimlari bilan hamkorlikda 2 ta jinoyat fosh etildi. Xususan, yaqinda o‘tkazilgan «Qidiruv» tadbiri davomida jinoyat sodir etib, qidiruvda bo‘lgan fuqaro A.F. safdor xodimlar Hakimjon Normirzayev va Bekzod Tursunov tomonidan ushlanib, Namangan shahar IIB Vaqtincha saqlash hibsxonasiga joylashtirildi. Bu yo‘nalishdagi ishlarni bajarishda xodimlar o‘z bilim va salohiyatlarini ishga solib, yurtimizda fuqarolar va xorijlik mehmonlarning xavfsizligini ta’minlashda o‘zlarining katta hissalarini qo‘shmoqdalar.

Sultonbek ISMOILOV,
Namangan viloyati TXTB
JXB JTSG katta inspektori,
kapitan.

BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ

MAHKUMNING «TAKLIFI» O‘TMADI

IIV huzuridagi JIED To‘rtinchi mintaqaviy hududi 35-sonli manzil koloniyasi ishlab chiqarish uchastkasi boshlig‘i, katta serjant Dilmurod Allayorovda elektr ustasi vazifasida ishlayotgan mahkum U.Y.ning xatti-harakatlari shubha uyg‘otdi. Profilaktik suhbat davomida mahkum ehtiyot qismlar sifatida saqlanayotgan motor va reduktorlarni qismlarga ajratib, ichidan rangli metallarni olgani oydinlashdi.

Mahkumning keyingi harakati yanada hayratlanarli bo‘ldi. U katta serjantdan qilmishi nafaqat oshkor bo‘lmasligini, balki rangli metallarni koloniya hududidan tashqariga chiqarib berishini ham so‘rab, evaziga esa 600 AQSH dollari miqdorida pul taklif qildi.

Hamkorlikda o‘tkazilgan tezkor tadbirda mahkum U.Y. katta serjant D.Allayorovga 5 million 700 ming so‘m pulni berayotgan vaqtda ashyoviy dalillar bilan qo‘lga olindi. Holat yuzasidan Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atildi.

Ichki ishlar organlarida qariyb 14 yildan buyon xizmat qilib kelayotgan katta serjant Dilmurod Allayorov berilgan topshiriqlarni vaqtida bajarishi, tirishqoqligi, o‘z ustida ishlashi bilan hamkasblari e’tiborini qozongan. U turmush o‘rtog‘i Gulhayoxon bilan 3 nafar farzandini «Halollik baxtga yetaklaydi» degan hayotiy aqida asosida tarbiyalab kelmoqda.



– Bu kabi holatlar faoliyatimda tez-tez uchrab turadi. Lekin men hamkasblarimga ham bu kabi qing‘ir harakat qilmaslikni uqtirib kelaman. Sababi, halollikda gap ko‘p. Farzandlarimni ham shunga o‘rgatib kelyapman. Eng asosiysi sidqidildan, halol xizmat qilib, el-yurt oldida yuzimiz yorug‘ bo‘lsin, – deydi lavhamiz qahramoni.

Sodiq RAHIMOV,
o‘z muxbirimiz.
Qashqadaryo viloyati.

CHEGARA HUDUDLARDA

TINCH OQAR SUVNING TAGI TERAN

Chegara hududlardan biri Muzrabot tumanida boshqa hududlarga qaraganda jamoat tartibini saqlash, odamlar osoyishtaligini ta’minlash ishi bir muncha mas’uliyat talab qiladi.



Tuman IIB JXX jamoat tartibini saqlash guruhi xodimlarining sa’y-harakati natijasida bu yil jamoat tadbirlarida, aholi gavjum joylarda jinoyatchilik va huquqbuzarliklar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 50 foizga kamayganini ko‘rishimiz mumkin. Bunda soha vakillarining mehnati katta.

— Tumanda 37 ta mahalla bo‘lib, muhim obyektlar va aholi gavjum joylarda 500 dan ortiq kuzatuv kameralari o‘rnatilgan, — deydi tuman IIB JXX JTSG katta inspektori, kapitan Qahramon Mo‘minov. — Ular orqali hududni nazorat qilish imkoniyati kengaydi. Mavjud 3 ta bozorda hushyorlik bilan olib borilayotgan xizmat natijasida jamiyatda yurish-turish qoidalarini buzish, bezorilik kabi jinoyatlar sezilarli darajada kamaydi.

Tumanda 175 nafar ovchi ro‘yxatga, 202 dona ov quroli nazoratga olingan. Ov qurollarining qanday saqlanayotgani, ulardan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha maxsus tekshiruvlar o‘tkazib kelinmoqda. Natijada yil boshidan beri ovchilar bilan bog‘liq birorta ham ko‘ngilsiz hodisa qayd etilmadi.

Qolaversa, hududda ayni kunlarda «Xavfsiz hudud — dolzarb 50 kun» profilaktik tadbiri o‘tkazilmoqda. Jarayonda tumandagi «Yangiyer» mahallasida yashovchi R. Esanovning marhum otasi tomonidan qurilgan yashash xonadonining poydevor qismidagi yemirilgan joyi ko‘zdan kechirilganida, fuqaroning otasiga tegishli 1941-yilda ishlab chiqarilgan ov quroli borligi aniqlandi. R. Esanovga huquqiy tushuncha berilgach, u o‘z ixtiyori bilan ov qurolini tuman IIBga topshirdi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o‘z muxbirimiz.
Surxondaryo viloyati.

PROBATSIYA XIZMATI

HAMMASINI BOSHIDAN BOSHLASH MUMKIN



Hayotning past-u baland yo‘llarida adashib, xatoga yo‘l qo‘yish mumkin. Xatoni tuzatmoqlik uchun qalbida chin dildan pushaymonlik ila halol va to‘g‘ri yo‘lni tanlamoq darkor! Ana shundagina insonning hayoti mazmunga, fayzga to‘ladi.

Nazorat ostidagi shaxslar bilan ishlash namunali tarzda yo‘lga qo‘yilgani tuzalish yo‘liga kirgan, qilmishidan pushaymon bo‘lgan fuqarolarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi hamda kelajakda aniq rejalarni belgilab olishida muhim omil bo‘lmoqda.

Hozirgi vaqtda Norin tumani IIB Probatsiya guruhi hisobida 410 nafar nazorat ostidagi shaxs mavjud. Respublika miqyosida o‘tkazilayotgan «Xavfsiz hudud – dolzarb 50 kunlik» profilaktik tadbiri davomida jazo o‘tayotgan nazorat ostidagi shaxslar bilan yetakchi mutaxassislar keng qamrovli davra suhbatlari tashkil etmoqda.

Nazorat ostidagi 90 dan ortiq yoshlarning tadbirkorlik bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lganlariga yaqindan ko‘mak berilmoqda. Xususan, «Pastki Cho‘ja» mahallasida yashovchi Alisher Abdurahimovga ijtimoiy yordam ajratilib, 10 million 500 ming so‘m miqdorida mablag‘ berildi. Alisher ohak ishlab chiqarish yo‘nalishida o‘z tadbirkorlik faoliyatini boshladi.

– Inson chin dildan xohlasa, o‘zgarishi, hammasini boshidan boshlashi mumkin ekan, – deydi Alisher. – Harakat qilgan odamga esa albatta, omad eshiklari ochilaveradi. Mazkur kichik sexda 4 nafar nazorat ostidagi shaxs faoliyat olib bormoqda.

Har oyda Norin tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bilan hamkorlikda «Ishga marhamat» mehnat yarmarkasi tashkil etiladi. Joriy yil 14-noyabr kuni o‘tkazilgan mehnat yarmarkasida 9 nafar nazorat ostidagi shaxsning bandligi ta’minlandi. Bobur nomli mahallada joylashgan tunuka ishlab chiqarish sexiga ham 2 nafar nazorat ostidagi shaxs ishga qabul qilindi.

Rahmatillo MAMAJONOV,
kapitan.

Namangan viloyati.



QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR



NATIJADORLIKNING OSHISHIGA XIZMAT QILADI

Probatsiya nazorati ostida turgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ishonchli ta’minlanayotganligi, ularni jamiyatga ijtimoiy moslashtirish, turmush sharoitini yaxshilash, bandligiga ko‘maklashish maqsadida qator ishlar amalga oshirilayotganiga qaramasdan, ular orasida sud tomonidan tayinlangan taqiq (cheklov) va majburiyatlarni qasddan buzishga urinayotganlar ham bor. Shu boisdan probatsiya nazoratidagi shaxslar tomonidan qayta jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, tezkor nazoratni amalga oshirish hamda ta’sir choralarini ko‘rish maqsadida ichki ishlar organlari probatsiya bo‘linmalari xodimlariga qo‘shimcha vakolatlar berildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2024-yil 15-noyabr kuni «O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 206 va 248-moddalariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish haqida»gi qonun imzolandi. Ushbu qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga ma’muriy nazorat va probatsiya nazoratidagi shaxslarga nisbatan ta’sir choralarini kuchaytirish, shuningdek, ichki ishlar organlari probatsiya bo‘linmalari xodimlarining vakolatlarini kengaytirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritildi.

Qonunga muvofiq, probatsiya xizmatining katta inspektori va inspektoriga probatsiya nazoratidagi shaxslarga nisbatan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi bayonnomani tuzish vakolati berildi. Ya’ni Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 248-moddasi to‘rtinchi qismiga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish orqali ichki ishlar organlarining 185^2- (Sovuq qurolni yoki sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo‘lgan ashyolarni olib yurish) va 187-moddalari (Jamoat joylarida alkogol mahsulotini iste’mol qilish) bo‘yicha probatsiya nazoratidagi shaxslarga nisbatan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi bayonnomani tuzish vakolatini probatsiya xizmatining katta inspektori va inspektoriga berish normasi belgilab qo‘yildi.

Ushbu Qonun qabul qilingunga qadar, probatsiya bo‘linmalari xodimlarining nazorati ostidagi shaxs tomonidan huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, unga nisbatan ma’muriy bayonnoma tuzish uchun uni hududiylik jihatdan yaqin orada joylashgan ichki ishlar organi tayanch punkti profilaktika inspektorining oldiga olib borilardi. Bu esa probatsiya xodimining ish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ortiqcha vaqt sarflanishiga sabab bo‘layotgan edi.

Yangi qonun probatsiya nazoratidagi shaxslar tomonidan ma’muriy huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga va ularga nisbatan qo‘llaniladigan ta’sir choralari natijadorligining oshishiga xizmat qiladi.

Sharof URALOV,
polkovnik.

Постановление и его исполнение

НЕ МОЛЧИ, ТЫ НЕ ОДНА!

Президент Узбекистана 10 мая 2024 года подписал Постановление «О дополнительных мерах по совершенствованию оказания социальных услуг лицам, пострадавшим от притеснения и насилия». В соответствии с документом внедрена система комплексного оказания социальных услуг по принципу «семья – махалля – район и регион».



Установлено, что лицам, пострадавшим от притеснения и насилия, будут предоставляться социальные, юридические услуги без истребования охранного ордера. Кроме того, случаи притеснения и насилия в отношении женщин регистрируются сотрудниками ОВД на основании обращений, поступивших на номер телефона дежурной части – «102». В течение 24 часов с момента выявления случая притеснения и насилия или угрозы их совершения с лицом, совершившим противоправное действие, проводится беседа при участии женского активиста и инспектора профилактики махалли, оформляется охранный ордер. Пострадавшие женщины и их несовершеннолетние дети размещаются в экстренные приемные отделения районных или городских больниц.

С этой целью с 1 июня текущего года в Джизакской, Навоийской и Хорезмской областях, с 1 октября – во всех остальных регионах республики организованы круглосуточные пункты первичной помощи.

В указанные пункты помощи размещаются женщины, пострадавшие от притеснения и насилия, несовершеннолетние дети для улучшения физического и психологического состояния на срок до трех суток. В этот период им оказывается первая помощь, включая психологическую и психотерапевтическую, проводятся анализы на наличие инфекционных болезней.

С 1 октября в каждом случае выдачи охранного ордера коррекционная программа по изменению насильственного поведения лиц, совершивших или склонных к совершению притеснения и насилия, утверждаются по согласованию с центрами «Инсон». С 1 января 2025 года органами внутренних дел будет вестись реестр лиц, совершивших или склонных к совершению притеснения и насилия.

Согласно положениям Постановления в Нукусе создана комната первичной помощи при Каракалпакском филиале Республиканского научного центра экстренной медицинской помощи. Состоялась встреча с участием представителей УКД ОВД города Нукуса, Центра реабилитации и адаптации женщин, Центра «Инсон». В ходе встречи обсуждались вопросы реализации совместных мер.

– Постановление главы государства способствует безотлагательному решению проблем женщин, подвергшихся притеснению и насилию. Бывают случаи, когда невозможно оставить пострадавшую с детьми в доме супруга. В таких случаях комната первичной помощи, где одновременно оказываются психологическая и медицинская поддержка, весьма эффективна, – говорит старший инспектор по вопросам женщин подполковник Айжамал Наменова. – С начала октября 6 женщин были размещены в комнате первичной помощи. Одна из них – жительница схода граждан «Коскуль» И. Д. Она подвергалась психологическому давлению, притеснению со стороны супруга. В связи с этим женщина и трое ее детей были размещены в пункте первичной помощи, ей оформлен охранный ордер.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.
Республика Каракалпакстан.

«Яшил макон»

ДЕЛО ВСЕХ И КАЖДОГО

По инициативе главы государства в стране реализуется общенациональный проект «Яшил макон». В эти дни в рамках проекта во всех регионах ведется работа по осенней высадке саженцев деревьев и кустарников.



На этот благородный призыв откликнулись личный состав и ветераны правоохранительных органов Ферганской области, приняв активное участие в озеленении.

В поселке Мингдонобод Ферганского района на выделенном земельном участке холмистой местности высажено более тысячи саженцев плодовых деревьев – яблони, персик, айва, а также декоративные деревья, включая сосны и тополя. Перед посадкой саженцев руководство УВД провело инструктаж, на котором подчеркивалось, что основная цель общенационального проекта заключается в расширении зеленых зон, повышении активности и ответственности молодежи в обеспечении экологической стабильности. Назначены ответственные лица от каждой профильной службы, на которых возложена задача регулярного ухода за садом.





– Наши предки, даже в местах, где не было влаги, носили воду в тюбетейках, чтобы вырастить деревья, – говорит подполковник в отставке Баходиржон Мухторов. – Тысячи саженцев, которые они посадили, сейчас служат нынешнему поколению. Если мы тоже посадим деревца на нашей родной земле, это станет наследием для будущих поколений.

Значение общенационального проекта «Яшил макон», инициированного Президентом страны, поистине неоценимо. В результате его реализации появятся сады и парки, что будет способствовать созданию благоприятной экологической обстановки. Данный проект является важной программой на пути к процветанию. Каждый гражданин, неравнодушный к настоящему и будущему страны, должен активно участвовать в этом благом деле.

Соб. корр.
Ферганская область.

XIZMATLARDA

MONOMARKAZLAR BILAN HAMKORLIK

nazoratdagi shaxslarni ish bilan ta’minlashda yaxshi samara bermoqda

Keyingi yillarda aholi bandligini ta’minlash va kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha «Ishga marhamat» monomarkazlarining faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda.





Aholining ishchanlik faolligini oshirish, kambag‘al va ishsiz fuqarolarni zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish, shu asosda ularni doimiy daromad keltiradigan mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish ushbu markazlarning ustuvor maqsadi sanaladi.

Farg‘ona shahrida 2020-yildan beri faoliyat ko‘rsatayotgan monomarkazda tikuvchilik, payvandlash, avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish, maishiy texnikalarni ta’mirlash, elektrik, santexnik, veb-dizayn kabi 16 ta kasb va chet tillariga o‘qitish orqali mahalliy va xorijiy ish beruvchilarning talablariga mos ravishda malakali mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Shunisi e’tiborliki, ichki ishlar organlarining probatsiya xizmati hisobida turib, jazo o‘tayotgan shaxslar ham ushbu markazlar xizmatidan samarali foydalanmoqda.

Monomarkazda fuqarolarga xorijda malakali mehnat migranti sifatida faoliyat olib borishlari uchun Tashqi mehnat migratsiya agentligi Farg‘ona mintaqaviy byurosi, Rossiya Federatsiyasining RUDN universiteti, Yaponiyaning «Nippon Academy» va «Yamoto Academy» o‘quv markazlari bilan qurilish, qishloq xo‘jaligi hamda IT sohalari hamda Koreyaning kemasozlik korxonalari uchun mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan.

Yaqinda 50 nafar nazoratdagi shaxslar ishtirok etgan tadbirda 10 nafar shaxslar bilan duradgorlik, chilangarlik va og‘ir yuk ko‘tarish qurilmalarida ishlash yo‘nalishlarida kasbga o‘qitish bo‘yicha hujjatlar rasmiylashtirilgan bo‘lsa, ularning 2 nafari avtoelektrik hamda payvandchilik kasblari bo‘yicha shu yerning o‘zida ishga qabul qilindi.

Ma’lumot o‘rnida aytish zarurki, hamkorlik memorandumiga asosan, ushbu markazda ichki ishlar organlari xodimlari, harbiy xizmatchilar hamda ishchi-xizmatchilar va ularning oila a’zolari, shuningdek, 18 yoshga yetgan farzandlari uchun kasb-hunarga o‘qish imkoniyati ham yaratilgan.

O‘z muxbirimiz.
Farg‘ona viloyati.

AYOL VA JAMIYAT

TOTUVLIK KALITI

«Do‘stlik» mahallasida targ‘ibot tadbiri davom etayotgan edi. Yoshlarning savollariga Sirdaryo tumani IIB HPB XQMB katta inspektori, katta leytenant Ro‘zigul Risqulova atroflicha javob berishga harakat qilardi.



Qorachadan kelgan, ko‘zlari yonib turgan Noila ismli qizning «Oilada nega erkaklar hukmron bo‘lishi kerak?» degan savoli barchada ishtiboh tug‘dirdi. Uning dunyoqarashi o‘z oilasidagi, qo‘ni-qo‘shnilarning xonadonlaridagi vaziyatdan kelib chiqib shakllangani ko‘rinib turardi. Ro‘zigul qizning savoliga javob berar ekan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, Oila kodeksida hamda boshqa qonun hujjatlarida ayollar va erkaklarning huquqlari teng ekani mustahkamlanganini ta’kidladi.

Katta leytenantning so‘zlariga barcha qizlar diqqat bilan quloq solardi. Ularning qalbida kelgusida baxtli oila sohibasiga aylanish orzusi jo‘sh urayotgani yuz-ko‘zida aks etib turardi. Ro‘zigul baxtli hayot shartlari haqida gapirayotganida uyali telefoni jiringlab qoldi. Avval bunga e’tibor bermadi. Tinimsiz qo‘ng‘iroq bo‘lavergach, yig‘ilganlardan uzr so‘rab, go‘shakni qulog‘iga tutdi. Undan zudlik bilan ishxonaga yetib kelishini so‘rashayotgandi. Ma’lum bo‘lishicha, «Ziyokor» mahallasida yashovchi ayol oilaviy zo‘ravonlikka uchragan.

Katta leytenant Ro‘zigul Risqulova so‘zni mahalla profilaktika inspektoriga berib, qatnashchilardan yana bir bor uzr so‘rab, zaldan chiqdi. Yo‘l-yo‘lakay ushbu oila to‘g‘risida o‘ylab ketdi. Oldin ham u mazkur xonadonda bir necha bor bo‘lgan. Eri xususiy avtomobillar yuvish shoxobchasiga ega. Topish-tutishi yaxshi. Muqaddam oilasi bilan ajrashib, ushbu ayolga uylangan. Oilada moddiy yetishmovchilik yo‘q. Ularning uch yoshli qizalog‘i bor. Lekin er-xotin o‘zaro kelishmaydi.

Bu gal ham shunday bo‘libdi. Natijada ayol farzandini olib, ichki ishlar bo‘limiga kelib murojaat qilgan. Ro‘zigul Risqulova 35 yoshli ushbu ayolni tuman tibbiyot birlashmasiga olib bordi. Bu yerda tashkil etilgan birlamchi ko‘mak xonasiga joylashtirib, unga tibbiy xizmat ko‘rsatishni tashkil qildi. Ayol davolanib chiqqach, uni Gulistondagi Xotin-qizlarni ijtimoiy hayotga moslashtirish markaziga joylashtirdi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o‘z muxbirimiz.
Sirdaryo viloyati.

24-betdagi birinchi savolning javobi: Pablo Pikasso.

KARANTIN TADBIRLARI

VAZIYAT QANDAY?

BOZORLARDAGI EPIDEMIOLOGIK HOLAT XUSUSIDA

Kuz va qish mavsumida yurtimiz bozorlariga baraka kiradi. Poliz ne’matlaridan tortib, go‘sht va sut mahsulotlari, turli tuzlama va salatlar har qachongidan serob bo‘ladi. Bu, yaxshi, albatta. Ammo sotilayotgan mahsulotlarning sifati, bozorlardagi sanitariya va epidemiologik vaziyat ko‘ngildagidekmi? Bu borada nazorat qanday olib borilyapti? Shu savol bilan Farg‘ona viloyati IIB JXX JTSB Karantin tadbirlarini tashkil etish guruhi komandiri, leytenant Muslimjon G‘opurovga yuzlandik.





– Bozorlarimiz yanada gavjumlashayotgani ayni haqiqat, – deydi u. – Shu bois guruhimiz shaxsiy tarkibi bilan birga Farg‘ona shahrida joylashgan markaziy dehqon bozori va hududlardagi barcha savdo majmualarida targ‘ibot-tushuntirish ishlarini muntazam ravishda olib boryapmiz. Faoliyatimizda, avvalo, chora ko‘rish emas, targ‘ibot va tushuntirish ishlariga jiddiy e’tibor qaratiladi. Masalan, sotuvchilar va fuqarolar bilan veterinariya-sanitariya talablariga rioya qilgan holda, savdo faoliyatini olib borish, oziq-ovqat mahsulotini iste’molga yaroqlilik to‘g‘risida laboratoriya xulosasi berilganidan keyin savdoga chiqarish, sotuvchilarga doimiy ravishda tibbiy ko‘rikdan o‘tish kerakligini qayta-qayta eslatishdan charchamaymiz. Bunday profilaktik tadbirdan ko‘zlangan maqsad ham turli xil kasalliklar va infeksiyalar tarqalishining oldini olish, aholi salomatligiga ta’sir ko‘rsatuvchi sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlarining savdosiga chek qo‘yishdan iborat.

Guruh komandirining qayd etishicha, har qancha tushuntirish ishlari olib borilsa-da, o‘z bilganicha ish tutadigan, qonun-qoidalarni mensimaydigan fuqarolar ham uchrab turadi. Masalan, viloyat bo‘yicha yil boshidan buyon veterinariya-sanitariya qoidalari buzilishi yuzasidan 122 nafar fuqaroga nisbatan ma’muriy bayonnoma rasmiylashtirildi.

Iste’molga yaroqsiz deb topilgan 10 500 kg go‘sht mahsulotlari, 6058 kg sut mahsulotlari, 9520 dona tuxum hamda 1335 kg baliq va boshqa turdagi oziq-ovqatlar savdosi o‘z vaqtida to‘xtatib qolindi.

Abduvosit SIDIQOV,
o‘z muxbirimiz.
Farg‘ona viloyati.

«XAVFSIZ HUDUD – DOLZARB 50 KUN»

ZAVQ AZOBGA AYLANMASIN



Qashqadaryo viloyatida o‘tkazilayotgan «Xavfsiz hudud – dolzarb 50 kun» maxsus profilaktik tadbiri davomida ko‘plab qonunbuzilish holatlari aniqlanmoqda. Jumladan, Qarshi shahrida yashovchi fuqaro K.I. o‘z uyida qiymati 29 million 500 ming so‘m bo‘lgan 50.000 ta pirotexnika vositalarini qonunga xilof ravishda saqlab kelayotgani ma’lum bo‘ldi. Hozirda holat yuzasidan tergovga qadar tekshiruv harakatlari olib borilmoqda.

Tadbir boshlangandan buyon viloyat ichki ishlar organlari xodimlari 16 ta holatda umumiy qiymati 37 million 883 ming so‘mlik pirotexnika mahsulotlarini noqonuniy saqlash, tashish va sotish bilan bog‘liq holatlarni aniqlashga muvaffaq bo‘lishdi. Ayni chog‘da, viloyatga kiruvchi va chiquvchi barcha aylanma va asosiy yo‘llarda nazorat ishlari kuchaytirilib, temiryo‘l vokzali va bekatlarida, aeroportlarda, bozorlarda shubhali yuklar nazoratdan o‘tkazilmoqda.

Hozirda restoran, kafe, to‘yxona, choyxona va boshqa ko‘ngilochar maskanlarda pirotexnika vositalaridan foydalanmaslik qonunchilikda belgilangan javobgarlik masalalari haqida profilaktik targ‘ibot ishlari jadal olib borilyapti. Qolaversa, ta’lim muassasalari, mahallalar va mehnat jamoalarida o‘tkazilayotgan targ‘ibot tadbirlari muntazamlik kasb etmoqda.

Xulosa shuki, paqildoq – xavfli o‘yinchoq. Pirotexnika buyumlaridan ko‘ngilochar vosita sifatida foydalanish ayanchli oqibatlarni keltirib chiqaradi. Buni aslo unutmaslik lozim.

Ahror QURBONOV,
podpolkovnik.
Qashqadaryo viloyati.

ILG‘OR TEXNOLOGIYALAR – HAYOTGA

TIZIM RAQAMLASHTIRILYAPTI

Viloyat IIB JXX Monitoring va muvofiqlashtirish markazi tizimni raqamlashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning yorqin namunasi, desak, xato bo‘lmaydi. Jumladan, ushbu markazga 319 ta kuzatuv kamerasi integratsiya qilingan bo‘lib, ular orqali Jizzax shahridagi chorrahalar, jamoat joylari hamda voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazi, hushyorxonalar, vaqtincha saqlash hibsxonalari, ma’muriy qamoqqa olingan shaxslarni qabul qilish va saqlashga mo‘ljallangan maxsus qabulxona hamda reabilitatsiya markazi nazorat qilinmoqda.



Shuningdek, markazga huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat tartibini saqlash, yo‘l harakati xavfsizligi, probatsiya xizmatlariga aloqador 24 ta dastur ulangan. Ushbu dasturlar sohaviy xizmatlar xodimlarining faoliyatini o‘zida to‘liq aks ettiradi. Jumladan, ma’muriy ishlar, himoya orderi olganlar, profilaktik hisobda turganlar, probatsiya xizmati nazorati ostidagi shaxslarning psixologik portretlari, jinoyat muhokamalari, yo‘l-transport hodisalari, murojaatlarning qabul qilinishi, ariza-shikoyatlarni o‘rganish muddatiga amal qilinayotgani, avtoulovlarning davlat raqam-belgilari, YPX xodimlari xizmat olib borayotgan manzil kabi ko‘plab ma’lumotlarni olish mumkin.

Bu esa xodimlar faoliyatini nazorat qilish, muvofiqlashtirish, kuch va vositalarni vaziyatga ko‘ra yo‘naltirish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kamchiliklarning oldini olish hamda qog‘ozbozlikka chek qo‘yishda qo‘l kelayotir. Tez orada tizimga yana 12 ta dasturni joriy qilish rejalashtirilgan.

Alijon ABDUSATTOROV,
o‘z muxbirimiz.
Jizzax viloyati.

Бухарская область

ПОВЫШАЕТСЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ГРАЖДАН

Сотрудники группы миграции и оформления гражданства Каганского районного отдела внутренних дел эффективно работают над обеспечением граждан ID-картами и загранпаспортами.



Здесь созданы необходимые условия для оказания услуг населению на высоком уровне. Здание службы полностью отремонтировано, кабинеты оснащены оргтехникой, средствами связи. Четко налажен прием граждан, сбор и оформление данных.

За прошедший период года оформлены ID-карты почти 11 700 гражданам, выданы загранпаспорта 2 704 гражданам. Особое внимание уделяется торжественному вручению ID-карт лицам, достигшим 16-летнего возраста. Продолжается работа по выездному сбору паспортных данных у граждан с ограниченными возможностями и тех, кто по состоянию здоровья не может посетить подразделение. Нуждающимся в социальной защите оказывается практическая помощь в сотрудничестве с соответствующими организациями.

– Нашими сотрудниками выявлено в текущем году, что 323 гражданина нарушили правила паспортно-визового режима, – говорит старший специалист группы капитан Абрам Адизов. – Выяснилось, что 231 человек потеряли свой паспорт, 25 привели его в негодное состояние, у 41 были просрочены документы. В отношении лиц, не соблюдающих установленные требования закона, приняты административные меры.

На территории района временно зарегистрированы 296 иностранных граждан. Временно зарегистрированные граждане инструктируются территориальными инспекторами профилактики, с ними проводятся беседы и проверки относительно соблюдения установленных правил пребывания.

Особое внимание уделяется повышению правовых знаний молодежи. На плановых мероприятиях присутствуют ведущие специалисты правоохранительных органов, ветераны сферы, представители общественных организаций. Они разъясняют значение основного документа, подтверждающего подданство.

Совместные мероприятия, проводимые в районе, способствуют обеспечению общественного порядка и безопасности, предотвращению преступлений и правонарушений.

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.

Кинологическая служба

«ГОРДИМСЯ КОЛЛЕГОЙ»

Какими бы ни были достижения научного прогресса, есть области деятельности, в которых человеку не обойтись без помощи животных. В частности, в раскрытии преступлений участвуют служебные собаки.

В органы внутренних дел поступила информация о человеке, причастном к незаконному обороту наркотиков. Следственно-оперативная группа, в составе которой был младший инспектор-кинолог отделения кинологии УООП СОБ Наманганского областного УВД рядовой Ахмаджон Абдукаримов вместе со служебной собакой по кличке Сара, направилась в махаллю Мустакиллик Давлатабадского района, где проживал подозреваемый. Здесь внимание кинолога привлек молодой человек, который вел себя подозрительно. Проявила беспокойство, подав сигнал, и Сара. Гражданин был досмотрен в присутствии понятых. В его кармане сотрудники обнаружили вещество темного цвета с резким запахом, завернутое в денежную купюру. Согласно заключению специалистов, это был гашиш весом 0,31 грамма.



Рядовой А. Абдукаримов один из лучших сотрудников подразделения. Он проявляет высокую ответственность, добросовестно выполняет обязанности. В текущем году кинолог со служебной собакой помог раскрыть 10 преступлений. Из них 4 преступления связаны с незаконным оборотом наркотиков, 5 – с кражами, участвовал в задержании лица, находившегося в розыске.

Продолжая традиции наставничества, герой очерка щедро делится опытом с сотрудниками – младшими инспекторами-кинологами сержантом Дониёром Эгамбердиевым, рядовым Абдулазизом Собировым.

Мы по праву гордимся коллегой.

Бунёд АНОРБОЕВ,
рядовой.
Наманганская область.

Мы против насилия!

ИСКОРЕНИТЬ ЗЛО

В нашей стране осуществляется целенаправленная деятельность по обеспечению прав женщин. Соотечественницам, оказавшимся в сложной жизненной ситуации, ставшим жертвами насилия, выдаются охранные ордеры.

С начала года старшим инспектором по вопросам женщин ОПП СОБ ОВД Джамбайского района капитаном Дилнозой Бекназаровой выдано 60 охранных ордеров.

– Нередки семейные конфликты, требующие незамедлительного вмешательства, – говорит Д. Бекназарова. – Вовремя разрешенные ссоры и скандалы могут предотвратить более серьезные последствия, включая преступления.

В первые годы выдачи охранных ордеров большинство дел подпадало под административную ответственность. Сегодня ситуация изменилась. Заявления рассматриваются в судебном порядке. Примирение в случае бытового насилия стало возможным лишь на стадии судебного разбирательства. Ранее это было можно сделать на стадии дознания и предварительного следствия. В законодательство о защите прав и свобод женщин и детей – в статьи 59^2 Кодекса об административной ответственности, 126^1 Уголовного кодекса внесены соответствующие дополнения.

– Важно, что в обществе сложилось твердое мнение о недопустимости проявления любых форм насилия в отношении женщин, – подчеркивает наша собеседница. – Цель – искоренить это социальное зло.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.
Самаркандская область.

TURMUSH CHORRAHALARIDA

SOXTA MUHABBAT «TO‘RI»

Ishdan qaytayotgan Gulmiraning uyali telefoni jiringlab qoldi. U notanish raqamni ko‘rib, qo‘ng‘iroqqa javob bermadi. Oradan ko‘p vaqt o‘tmay yana o‘sha raqamdan qo‘ng‘iroq keldi. U istar-istamas telefoniga quloq tutdi.

– Allo, bu Gulmirami?

– Ha, menman!

– Ismim Murod. Sizni ko‘pdan buyon kuzataman. Ammo ko‘nglimdagi gapni aytolmayapman.

– Men siz o‘ylagandek telefon orqali tanishib ketaveradigan yengiltak qizlardan emasman.

– Iltimos, ko‘p vaqtingizni olmayman. Shu bugunoq qalbimni o‘rtayotgan bor gapni sizga aytmasam bo‘lmaydi. Sizni uchratganimga bir oydan oshdi. O‘tgan kunlar mobaynida sizni o‘ylayverib, halovatim yo‘qoldi. Kun-u tun xayolimdasiz. Yuragimdagi bu gaplarni ko‘p bora aytishga urindim. Ammo har gal xuddi soqov kishidek yonginangizdan o‘tib ketaverdim...

Oshiq yigitning bu so‘zlari Gulmirani sehrlab qo‘ydi. G‘oyibona suhbat uzoq davom etmasa-da, ko‘ngilga yoqimli bir iliqlik olib kirgandek bo‘ldi. Ertasi kuni ular shahar markazidagi sayilgohda uchrashishdi. Qaddi-qomati kelishgan bu yigitni ko‘rgan Gulmira o‘zini yo‘qotib qo‘yayozdi. Yuzlari qizarib, yigitning ko‘zlariga tik boqolmadi. Kecha telefon orqali bor dardini doston qilayotgan Murod ham salom-alikdan nariga o‘tolmadi. Suhbat uncha uzoq davom etmadi. Ko‘rinishidan soddagina, tortinchoq bu yigit allaqachon Gulmiraga yoqib qolgandi. Xullas, ular ertaga ishdan so‘ng yana uchrashadigan bo‘lishdi. Murod Gulmirani shahardagi eng ko‘rkam kafelardan biriga taklif qildi. Dasturxonga qovurilgan jo‘ja go‘shti, turli ichimlig-u shirinliklar keltirildi. Shinamgina kafe bo‘ylab ohista yangrayotgan yoqimli kuy va diltortar qo‘shiq tortinibgina o‘tirishgan ikki yoshga o‘zgacha bir tetiklik, xush kayfiyat baxsh etdi. Murod qanchalik iltifot ko‘rsatmasin, Gulmira spirtli ichimlik iste’mol qilmadi. Bir zumda oshiq yigitning kayfi oshib qoldi. Bundan xijolat bo‘lgan Gulmira uni uyigacha kuzatib qo‘ydi.

– Yaxshi bo‘lmadi, – dedi Murod o‘zini zo‘rg‘a tutib. – Aslida men sizni kuzatib qo‘yishim kerak edi. Mayli, bu yog‘iga qarzdorman. Mana shu uyning ikkinchi qavatida yashayman. Ammo uygacha yetib olishimga ko‘zim yetmayapti.

– Endi yelkamda ko‘tarib, uyingizga kiritib qo‘yishim qolgandi, – dedi Gulmira xafa bo‘lgancha. – Ko‘rganlar nima deydi?

– Nima derdi, yor ishqida kuygan bir devona yigitga vafodor qiz chin ko‘ngildan yordam beryapti, deydi.

– Mayli, gapni cho‘zmasdan yuring tezroq, – dedi Gulmira daraxtga zo‘rg‘a suyanib turgan Murodning qo‘lidan tortib. – Agar bundan keyin ham shunday injiqlik qilaversangiz meni boshqa ko‘rmaysiz.

Xullas, ular ikkinchi qavatga ko‘tarilishdi. Murod cho‘ntagidan kalitni olib, zo‘rg‘a eshikni ochdi va Gulmirani ichkariga taklif qildi. Yigitning bu iltifotidan qizning battar jahli chiqdi. Buni sezgan Murod qizning qo‘lidan ushlab, uni ichkariga tortdi va eshikni qulflab oldi. Murodning bu qilmishidan asabiylashgan Gulmira uni itarib yubordi va uydan chiqib ketmoqchi bo‘ldi. Ammo Murod uning yo‘lini to‘sdi va ichkariga, yotog‘iga sudray boshladi. Qiz qanchalik harakat qilmasin, yigitning qo‘lidan chiqib ketolmadi...



Makr-hiyla qurboni bo‘lgan Gulmira bir necha kun o‘ziga kelolmay yurdi. Oxiri u ichki ishlar bo‘limiga murojaat qilishga majbur bo‘ldi. Shahardagi xonadonlardan birida ijarada yashab, giyohvandlik moddasi oldi-sotdisi bilan shug‘ullanayotgan K. Murod jinoyat ustida qo‘lga olindi. Surishtiruvlar davomida oshiq yigit rolini qoyilmaqom tarzda ijro etgan bu manfur kimsaning muqaddam bir necha bor sudlanganligi hamda viloyat OITSga qarshi kurashish markazida OIV infeksiyasi yuqtirgan bemor sifatida dispanser hisobida turganligi ma’lum bo‘ldi.

... Bir necha yil Rossiyada ishlab, nopok ayollar bilan yaqin aloqada bo‘lgan Murod kutilmaganda OITS kasalligiga chalindi. Mutaxassislarning ogohlantirishlariga qaramay yana nopok ishlar bilan shug‘ullana boshladi. O‘sha kuni do‘stining uyidan chiqib, taksiga o‘tirdi. Orqa o‘rindiqda bir-biridan chiroyli ikki nafar yo‘lovchi qizlar suhbatlashib o‘tirishardi. Ulardan biri dugonasiga telefon raqamini aytib, navbatdagi bekatda tushib qoldi. Murod darhol bu raqamlarni telefoni xotirasiga joylab oldi. Uyga yetib kelgach, Gulmiraga qo‘ng‘iroq qilib, unga sevgi izhor qildi. Afsuski u soxta oshiqning shirin so‘zlariga ishongandi.

Xullas, jinoyatga qo‘l urgan Murod sud hukmi bilan uzoq muddatga qamaldi. Soxta muhabbat «to‘ri»ga tushib, bedavo dardga chalingan Gulmiraning hayoti esa oson kechmadi.

Xudoybergan JABBOROV,
o‘z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

QILMISH-QIDIRMISH

BIR XIL RAQAMDAGI IKKI MASHINA

Bugun ayrim kimsalar o‘z qilmishlarini yashirib, jazodan qutulib qolish maqsadida turli hiyla va nayranglarni o‘ylab topishmoqda. Ammo har qanday qing‘ir ish kuni kelganda fosh etilishi turgan gap.

Nukus shahrida yashovchi I.T. o‘zining «Cobalt» avtomashinasida bir necha marta qoidabuzarlik sodir etgani uchun jarima xatlari kelganida unchalik ajablanmadi. «Ha, endi shoshilib yurib, qoida buzgan bo‘lsam kerak», degan xayolga bordi. Ammo bir qoidabuzarlik tumanda sodir etilganini o‘qib, o‘ylanib qoldi. Sababi, u yaqin orada Nukusdan tashqariga chiqmagandi. Lekin avtomashina rusumi, rangi, raqami uniki bilan bir xil.

Masalaga oydinlik kiritish maqsadida Ichki ishlar vazirligi Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasiga bordi. O‘z navbatida, boshqarma xodimlari tomonidan qoidabuzarlik holati qayd qilingan lavhalar ko‘rib chiqildi. Natijada qoidabuzarlik fuqaro I.T. tomonidan sodir etilmagani oydinlashdi. Unda buni sodir etgan kim bo‘ldi ekan, axir, bitta avtomashina raqami ikki kishi nomiga rasmiylashtirilishi mumkin emas-ku?



Bu savolga ham tezda javob topildi. Ma’lum bo‘lishicha, Amudaryo tumanida yashovchi Z.R. «Cobalt» avtomashinasi fuqaro I.T.ning avtoulovi singari bir xil rangda ekanidan foydalanib, uning raqamini qalbakilashtirib foydalangan. Shu bois sodir etgan qoidabuzarliklar I.T.ning nomiga rasmiylashtirilgan avtomashinaga yozilib, uning manziliga yuborilgan.

Dastlabki surishtiruv ishlari chog‘ida Z.R. qalbaki avtomashina raqamini Rossiyada yasattirgani va foydalanib kelgani ma’lum bo‘ldi. Natijada unga nisbatan tegishli tartibda ma’muriy jazo chorasi qo‘llanildi.

Azamat PIRNIYAZOV,
o‘z muxbirimiz.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi.

KINOTAQDIM

«UCH QAHRAMON»NI QACHON KO‘RAMIZ?





Nihoyat, uzoq kutilgan «Uch qahramon» o‘tkir syujetli filmining suratga olish ishlari yakuniga yetib, katta premyera yaqinlashmoqda. Hali ekranlarga chiqmasdanoq, ayrim sahnalari bilan shov-shuv ko‘targan film O‘zbekiston Kinematografiya agentligi hamda Ichki ishlari vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti buyurtmasiga binoan, «Spectre studio» MCHJ tomonidan suratga olingan. To‘liq metrajli mazkur badiiy filmda jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashayotgan uch nafar xodimning faoliyati haqida hikoya qilinadi.

Filmda bosh rollarni o‘zbekistonlik taniqli aktyorlar — Ulug‘bek Qodirov, Shohrux Hamdamov, Sirojiddin Sattorov, shuningdek, qozog‘istonlik aktyor Tauekel Musilim ijro etgan. Bosh prodyuserlar Firdavs Abduholiqov va IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Axborot xizmati rahbari, podpolkovnik Muzifa Sultonova (g’oya muallifi ham), senariy muallifi, postanovkachi rejissyor Shohrux Rasulovdir.



— Sahnalar murakkab. Bu borada xalqaro darajadagi mutaxassislardan ham tavsiyalar olindi. Aktyorlar va umuman olganda ijodiy jamoa katta mehnat sarfladi. O‘ylaymizki, film teletomoshabinlarga manzur bo‘ladi. Kinokartinada ko‘pchilikning e’tiborini tortadigan jangari epizodlar ham yetarlicha, yagona bosh qahramon yo‘q, — deydi postanovkachi rejissyor Shohrux Rasulov.

Darhaqiqat, film treyleridan ham anglab olish qiyin emaski, har bir jarayon real hayotdan olingan. Ichki ishlar organlari xodimlarining mashaqqatli faoliyati jonli tasvirlangan deyishimiz mumkin. Ma’lumotlarga qaraganda, tasvirga olinishi kerak bo‘lgan voqealar, faktlar bittalab yig‘ib o‘rganilgan va buning o‘ziga bir yarim yilcha vaqt sarflangan. Sahnalashtirish ishlari boshlangunicha bir qancha taqdimotlar ham qilingan.

Kuniga o‘n soatlab tasvirga olish jarayonlari davom etgan yilning eng shov-shuvli kinoloyihasi – «Uch qahramon»ni joriy yilning 1 dekabridan yurtimiz kinoteatrlarida tomosha qilishingiz mumkin.

Abror POYONOV,
o‘z muxbirimiz.

KONSTITUTSIYANI O‘RGANAMIZ



1. Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari ... asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerak.

Yuqorida keltirilgan normada tushirib qoldirilgan nuqtalar o‘rnini to‘ldiring.

a) adolat prinsipiga;
b) qonuniylik prinsipiga;
v) mutanosiblik prinsipiga;
g) insoniylik prinsipiga.

2. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 20-moddasida keltirilgan «Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar» kimning foydasiga talqin etilishi belgilangan?

a) albatta davlat foydasiga;
b) inson foydasiga;
v) jamiyat foydasiga;
g) qonunchilik hujjatlari foydasiga.

3. Shaxsni hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga kimning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi?

a) Bosh prokurorning;
b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining;
v) Inson huquqlari bo‘yicha vakil – Ombudsmanning;
g) faqat sudning.

4. Shaxs sudning qarorisiz qancha muddatdan ortiq vaqt davomida ushlab turilishi mumkin emas?

a) qirq sakkiz soatdan ortiq;
b) bir ish kuni davomida;
v) o‘ttiz olti soatdan ortiq;
g) uch sutkadan ortiq.

5. Konstitutsiyaning 29-moddasiga asosan har bir shaxs ushlanganida qaysi paytdan e’tiboran o‘z tanloviga ko‘ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga egaligi belgilangan?

a) shaxsga nisbatan ayblov e’lon qilingan vaqtdan boshlab;
b) shaxsning nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atish to‘g‘risida qaror chiqarilgan paytdan boshlab;
v) shaxsning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan boshlab;
g) jinoyat protsessini boshlash to‘g‘risida qaror chiqarilgan vaqtdan boshlab.

6. Har kim yozishmalari, telefon orqali so‘zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga ... yo‘l qo‘yiladi.



Yuqorida keltirilgan normada tushirib qoldirilgan nuqtalar o‘rnini to‘ldiring.

a) faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan;
b) faqat qonunda belgilangan asoslarga ko‘ra;
v) faqatgina sudning qaroriga asosan;
g) qonun ruxsat bergan hollardagina.

7. Konstitutsiyaviy sudning sudyalari qayta saylanish huquqisiz qancha muddatga saylanadi?

a) o‘n yillik;
b) o‘n besh yillik;
v) muddatsiz;
g) besh yillik.

Javoblar: 1. v) asos Konstitutsiya 20-moddasi; 2. b) asos Konstitutsiya 20-moddasi; 3. g) asos Konstitutsiya 27-moddasi; 4. a) asos Konstitutsiya 27-moddasi; 5. v) asos Konstitutsiya 29-moddasi; 6. a) asos Konstitutsiya 31-moddasi; 7. a) asos Konstitutsiya 132-moddasi.

QILMISH-QIDIRMISH

EGRILIK – UMRNING SHO‘RI

Omadi kelganlarga firib berishga «ixtisoslashgan» jinoyatchi haqida eshitganmisiz? Chinoz tumani «Obihayot» mahallasida yashovchi A.S. ana shunday «san’at»ni puxta egallagan iste’dod sohibi. To‘g‘ri, bu darajaga yetguncha jinoyat ko‘chalarida rosa izg‘idi. Chunonchi, 2016–2024-yillar oralig‘ida ikki marta o‘g‘rilik, bir marta talonchilik, uch marta firibgarlik qilgani uchun sudlangan.

Shuncha jazolansa-da, esi kirmagan bu kimsa qonunni buzishda davom etdi. Jumladan, televizion o‘yinlarda avtomobil yutib olgan shaxslarni chuv tushira boshladi. Ya’ni, ijtimoiy tarmoqqa joylangan teleko‘rsatuvlardan o‘yin sovrindorlarining telefon raqamlarini aniqlab, ulardan pul undirgan. Xususan, G‘.N. bilan bog‘lanib, avtomashinaning soliq to‘lovini o‘z vaqtida to‘laganligi sabab 27 million so‘mlik maishiy texnika bonus sifatida ajratilgani, bu sovrinni olish uchun yana 4 million 824 ming so‘m pul to‘lashi kerakligiga ishontirgan.

Boshqa bir fuqarodan esa avtomashina yetkazib berish xarajatlari uchun 3 million 600 ming so‘mni bank plastik kartasiga tushirib olgan. Firibgar shu tarzda Jizzax viloyatida yashovchi 3 nafar, Xorazm va Farg‘ona viloyatlarida istiqomat qiluvchi 2 nafar fuqaroning pullarini o‘zlashtirgan. Bundan tashqari, u «telefoningizdan qo‘ng‘iroq qilib olay», degan bahona bilan Chinoz tumani «Kattatepalik» mahallasida yashovchi I.N.ning uyali aloqa vositasini olib qochgan.


Sud ayblanuvchining qilmishlarini atroflicha ko‘rib chiqib, 6,5 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinladi. Shuningdek, jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni undirish choralari belgilandi. Xullas, ustasi farang firibgar yana panjara ortiga yo‘l oldi.

Shavkat SHAMSHIYEV,
Jinoyat ishlari bo‘yicha
Zomin tuman sudi raisi.



TEKIN DAROMAD TATIMADI

Bugungi kunda firibgarlik, o‘zganing ishonchiga kirib pul o‘zlashtirish bilan bog‘liq jinoyatlar, afsuski, ko‘paymoqda. Asli navoiylik bo‘lgan Gulsevar Olimova (ism-shariflar o‘zgartirildi) Namangan shahrida istiqomat qilib kelgan. U juda istarali, samimiy, suhbatlashgan odamida yaxshi taassurot uyg‘otardi. Balki shu fazilatlari uning odamlar ishonchiga kirishida qo‘l kelgandir.



«Qahramon»imiz o‘tgan yilning sentabr oylarida Yangiqo‘rg‘on tumanida istiqomat qiluvchi Hakima Usmonovaning farzandi Saodat Bo‘ronovani tanish-bilishlari orqali Namangan tibbiyot texnikumiga o‘qishga kiritib qo‘yish evaziga undan 500 AQSH dollari miqdoridagi pullarni firibgarlik yo‘li bilan qo‘lga kiritib, shaxsiy ehtiyojlariga ishlatib yuboradi.

Gulsevar o‘zining jinoiy harakatlarini davom ettirib, o‘tgan yilning dekabr oyida Yangiqo‘rg‘on tumanida yashovchi U. Mirolimovaning ishonchiga kirib, birgalikda tadbirkorlik rejasini tuzadi. Biroq aldov yo‘li bilan undan 8200 AQSH dollari miqdoridagi pullarni qo‘lga kiritib, uni ham gumdon qiladi.

Firibgar ayolning tekin daromadi tatimadi. Jabrlanuvchilar holat yuzasidan Yangiqo‘rg‘on tuman IIBga murojaat qilishdi.

Surishtiruv va tergov jarayonlarida guvohlar va jabrlanuvchilarning ko‘rsatuvlari, ayblanuvchining aybiga to‘la iqrorligi bilan ayblov ishi o‘z tasdig‘ini topdi. Mazkur holat yuzasidan Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan Gulsevar Olimovaga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atildi.

Maftuna NE’MATOVA,
Yangiqo‘rg‘on tumani IIB huzuridagi Tergov bo‘linmasi tergovchisi, katta leytenant.

EHTIYOT BO‘LING: FIRIBGAR!

«HOJATBARORLIK»

Tahlillarga qaraganda, yo‘l-transport hodisalarining aksariyati avtoulov boshqarayotgan shaxsning yetarlicha haydovchilik malakasiga ega bo‘lmaganligi oqibatida sodir etilayotgani ma’lum bo‘lmoqda. Shuning uchun haydovchilar belgilangan tartibda yo‘l harakati qoidalarini mukammal o‘rganishlari hamda avtoulovni boshqarish borasida amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lishlari talab etiladi.



Karmana tumani «Kalovat» mahallasida istiqomat qiluvchi shaxs haydovchilik guvohnomasi olishga ehtiyoji bor, ammo yo‘l harakati qoidalarini o‘rganishga hafsala qilmaydigan fuqarolarni ko‘z ostiga olardi. Bu gal uning hiyla to‘riga Navoiy kon-metallurgiya kombinati ishchisi tushdi. Unga 900 AQSH dollari evaziga viloyat IIB YHXBda xizmat qiluvchi tanishlari orqali «B, C» toifali haydovchilik guvohnomasini olib berishga va’da berdi.

Korxona ishchisining mazkur holat yuzasidan IIV SHXBB Navoiy viloyati bo‘yicha bo‘limiga murojaatiga muvofiq, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Navoiy viloyati bo‘yicha boshqarmasi xodimlari bilan hamkorlikda tezkor tadbir o‘tkazildi. Natijada «hojatbaror» ariza muallifidan aytilgan pullarni olayotgan paytda ashyoviy dalil bilan qo‘lga olindi.

To‘plangan hujjatlar asosida ushbu holat yuzasidan qonunbuzarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atildi. Hozirda dastlabki tergov harakatlari olib borilmoqda.

Shu o‘rinda fuqarolarga eslatib o‘tmoqchimiz: haydovchilik guvohnomasini faqat belgilangan tartibda maxsus test sinovlarni va amaliy imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan shaxslargina olishlari mumkin. Shuning uchun muammoyingizni oson hal etib berishni va’da qilayotgan shaxslarga ishonib, chuv tushib qolmang.

Mahliyo XOLOVA,
o‘z muxbirimiz.
Navoiy viloyati.

1-DEKABR – BUTUNJAHON OITSGA QARSHI KURASHISH KUNI

SOG‘LOM TURMUSH – GO‘ZAL HAYOT DEMAKDIR

Mamlakatimizda aholi salomatligini muhofaza qilish maqsadida OITSga qarshi kurashish markazlari tomonidan mobil laboratoriyalar, maxsus xonalar va multidissiplinar guruhlar tashkil etilgan. Respublikamizda OIV infeksiyali bemorlarga 2006-yildan boshlab «Antiretrovirus» bilan davolash boshlab yuborilgan, eng ahamiyatlisi, ushbu qimmatbaho dori vositalari hukumat tomonidan bepul berilmoqda.



OIV infeksiyasi epidemiyasiga qarshi kurashish mas’uliyatni, profilaktik tadbirlarning uzluksizligini talab etadi. Jumladan, bu haqda har bir inson yetarli darajada bilimga ega bo‘lishi, undan saqlanish choralariga amal qilishi, o‘z bilimlarini yaqinlariga, jamoadoshlariga yetkazishi lozim.

Har bir shaxsning virusni yuqtirib olishga moyilligi jinsi va yoshidan qat’i nazar, bir xil hisoblanadi. Virus odam organizmidagi biologik suyuqliklarda bo‘ladi va odam organizmida kuniga milliardlab ko‘payadi. Odam immunitet tanqislik virusini yuqtirib olgan shaxslar infeksiyaning manbayi hisoblanadi.

Virus bilan zararlangan odam qoni, ona suti, shahvat va qin suyuqligida virus yuqori miqdorda uchraydi va infeksiyaning yuqishiga sabab bo‘ladi. So‘lak, ter, burundan oqadigan suyuqlik, balg‘am, ko‘z yoshi, peshob, najas va qusuq moddalarida (tarkibida qon saqlamasa) virus kam miqdorda uchrab, kasallik yuqish nuqtai nazaridan xavfli hisoblanmaydi. Agarda, ushbu suyuqliklar tarkibida ko‘zga tashlanarli darajada qon aralashgan bo‘lsa, ular nisbatan xavfli hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda Odam immunitet tanqisligi virusi jinsiy, parenteral va vertikal yuqish yo‘llari orqali o‘tishi aniqlangan.

Tashqi ko‘rinishiga qarab, OIVni yuqtirib olgan insonni bilib bo‘lmaydi. U o‘zining kasalligini bilmay turib, boshqalarga yuqtirishi mumkin. Faqatgina odam qonini laboratoriya tekshiruvidan o‘tkazib, bu kasallik yuqqanligini aniqlash mumkin. Ushbu kasallikka tekshirish istagini bildirgan shaxslar, o‘zlari yashab turgan joylardagi poliklinika, teri-tanosil kasalliklari dispanserlari yoki OITSga qarshi kurashish markazining ishonch xonalariga murojaat etishlari mumkin. Yuqorida sanab o‘tilgan davolash-profilaktika muassasalarida aholiga bepul, murojaat etuvchining istagiga ko‘ra, shaxsini sir saqlagan holda, xufyona tekshiruv o‘tkaziladi.

OIV infeksiyasining oldini olishda barchamiz birgalikda faol ish olib borishimiz zarur. Doimo sog‘lom turmush tarzi qoidalariga rioya qilib yashang, shunda hayotimiz go‘zal, turmushimiz shirin kechadi. OIV infeksiyasini yuqtirish yoki yuqtirmaslik, baxtli oila qurish va uni shakllantirish har birimizning o‘z qo‘limizda ekanligini unutmang!

Farruxbek RO‘ZMETOV,
IIV Tibbiyot boshqarmasi SENBM katta mutaxassis shifokor-epidemiologi, katta leytenant.

SALOMATLIK SABOQLARI

ARQONDA SAKRASH HAM OZDIRADI



Arqonda sakrash salomatligimiz uchun qanchalar foydali ekanini bilasizmi? Oddiy shu mashq yordamida ozish mumkinligini-chi?

Ushbu jismoniy faollik har qanday kardiomashg‘ulotlarga qaraganda ko‘proq kaloriya yo‘qotishga yordam beradi. Shuningdek, yog‘ni eritadi, mushaklarni kuchaytiradi, chidamlilikni oshiradi. To‘g‘ri texnika bilan mashq bajarilsa, sezilarli darajada vazn yo‘qotishning imkoni bor.

Xo‘sh, vazn yo‘qotish uchun arqon bilan qanday va qancha sakrash kerak? Avvalo, unutmangki, hech qanday jismoniy mashqlar parhezga rioya qilmasdan turib qorindagi yog‘lardan xalos bo‘lishga yordam bermaydi. Demak, ozish uchun har kuni mashq qilishingiz lozim. Birinchi marta mashg‘ulot 1–2 daqiqadan oshmasligi kerak. Har 3–4 kunda ikki daqiqadan qo‘shing. Tezlikni kuzatish muhim, dastlab u minimal bo‘lsin. Shu tarzda mashq qilish orqali siz nafaqat vazn yo‘qotasiz, balki tananing barcha mushaklarining uyg‘unligini oshirasiz, oyoqlar, boldirlarni mustahkamlaysiz, holatni muvofiqlashtirishni, muvozanat hissini, chaqqonlikni yaxshilaysiz. E’tibor beringki, ovqatlanishdan oldin yoki ovqatdan ikki soatdan keyin mashq bilan shug‘ullanish maqsadga muvofiq.

Agar siz ko‘pincha o‘tirib ishlaydigan bo‘lsangiz yoki aksincha, doimiy og‘ir narsani ko‘tarish tufayli belingiz tez-tez og‘riydigan bo‘lsa, bu holatda ham arqonda sakrash mashqi qo‘l keladi. Chunki bu jarayonda umurtqa pog‘onasi cho‘ziladi. Natijada skolioz muammosi xavfi kamayadi.

Shu bilan birga, arqonda sakrash mashqi yurak faoliyatini yaxshilaydi, organizmda yig‘ilib qolgan tuzlarni haydashga yordam beradi. Yana bir muhim jihati – stressga qarshi kurashishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi, asab tizimiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatib, kayfiyatni yaxshilaydi.

Ushbu mashg‘ulot ozish uchun ham, salomatlik uchun ham foydali bo‘lsada, mumkin bo‘lmagan holatlar ham bor. Xususan, tomirlar varikozi, haddan tashqari semizlik, tromboflebit, tizza, oyoq, chanoq sohasi jarohatlari, yurak kasalliklari, gipertoniya va yallig‘lanish kasalligi bo‘lganlar uchun arqonda sakrash mashqi holatni og‘irlashtiradi.

Shuningdek, 50 yoshdan oshganlar mutaxassis tavsiyasisiz mazkur mashqni bajarishi tavsiya etilmaydi.

Adolat FAYZIYEVA tayyorladi.

SHOKOLAD MIYA FAOLIYATINI YAXSHILAYDI

Qora shokolad yurak uchun juda foydali bo‘lib, yurak kasalliklari yuzaga kelishining oldini oladi, insult xavfini kamaytiradi va qon bosimini normallashtiradi. Qora shokoladning yana bir yaxshi xususiyati bu – miya faoliyatini yaxshilashi. Shuningdek, uni muntazam iste’mol qilish insult va infarkt xavfini kamaytiradi.



Ushbu mahsulot antioksidantlarga boy bo‘lib, temir, kaliy, magniy, mis, rux va boshqa foydali minerallar manbayi hisoblanadi. U ham kakao singari kayfiyatni ko‘taradi, ruhiy tushkunlik va depressiya holatidan chiqishga yordam beradi. Achchiq va qora shokolad metabolik sindromning (infarkt, ateroskleroz, gipertoniya, qandli diabet, demensiya, jigarning yog‘lanishi va boshq.) hamda ba’zi saraton kasalliklarining oldini oladi.

Bundan tashqari, qora shokolad immunitetni shakllantiradi, qonni ko‘paytiradi, jismoniy mehnatga layoqatlilikni oshiradi, qon aylanishini yaxshilaydi. Tarkibidagi biofaol birikmalar teri holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Flavonollar quyoshdan himoya qiladi, terining zichligi va namlanishini oshiradi.

Boshqa shokolad turlaridan farqli o‘laroq, qora shokoladga kakao kukuni va kakao moyi ko‘proq, shakar esa kamroq qo‘shiladi. Haqiqiy qora shokolad tarkibida kakao miqdori 70 foizdan kam bo‘lmasligi kerak. Oliy navli shokolad qo‘lning iliq haroratidan erib ketmaydi.

Mutaxassislarning fikricha, shokolad tanada tromblar vujudga kelishining oldini oladi. Qora shokolad tarkibida kofein yo‘q. Lekin teobromin moddasi bo‘lgani bois kechqurun yeyish tavsiya etilmaydi, chunki uyquni qochirishi mumkin. Tarkibida oksalatlar ko‘p bo‘lgani bois buyrakda tosh hosil bo‘lishiga moyil insonlar uni iste’mol qilmagani ma’qul.

Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.

ИИВ Фахрийлар кенгаши Қорақалпоғистон Республикаси ИИВ ЙҲХБ Фахрийлар кенгаши раиси, истеъфодаги подполковник **Ўнғарбой ТУРДИМУРАТОВ**нинг вафоти муносабати билан марҳумнинг оила аъзоларига чуқур таъзия изҳор қилади.

Безопасный туризм

ПРИВЛЕКАТЕЛЬНЫЙ ИМИДЖ УЗБЕКИСТАНА

Одной из отраслей, активно развивающихся в Узбекистане, является туризм.



Важным вопросом для развития данной сферы является обеспечение безопасности туристов. Если безопасность путешествия не будет гарантирована, турист откажется от поездки в страну. Структура органов внутренних дел, занимающаяся обеспечением безопасности туристов, способствует увеличению потока любителей путешествий в республику.

На проходившей 29-й Ташкентской международной туристической ярмарке «Туризм на Шелковом пути – 2024» был развернут стенд с экспозициями, повествующими о деятельности подразделений по обеспечению безопасного туризма.

Сотрудники управлений по обеспечению безопасного туризма города Ташкента и Ташкентской области сопровождали участников ярмарки, проводимой с 1995 года при поддержке Всемирной туристской организации ООН (UNWTO). На ярмарке присутствовали представители 20 стран – Чехии, Малайзии, Грузии, Азербайджана, Таиланда, России и др. Также участвовали все регионы Узбекистана, частные туркомпании, гостиничные сети и отели, авиакомпании.





Улугбек АГЗАМХОДЖАЕВ,
подполковник.

MUNAJJIMLAR BASHORATI

(2–dekabrdan 8–dekabrgacha)



Qo‘y. Ijodiy shijoat boshingiz bilan ishga sho‘ng‘ishga majbur etishi mumkin. Nimanidir qo‘l mehnati yordamida bajarish zarur bo‘lsa, buni hech ikkilanmay, albatta, amalga oshiring. Aynan hozir to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun qulay davr sanaladi. Daromad kelishi aniq bo‘lsa-da, pullarni behuda sarflashdan tiyiling.



Buzoq. Mazkur hafta oilaviy masalalarni yoki anchadan beri o‘z yechimini topa olmayotgan muammolarni hal etish uchun qulay vaqt. Ushbu kunlarda kayfiyatingiz ko‘tarinki bo‘lib, qo‘l urgan aksariyat ishlaringiz baroridan keladi. Buning uchun yanada faol harakat qilish talab etiladi, xolos.



Egizaklar. Safarlar, sayohatlar va yangi ish boshlash uchun qulay fursat. Shuningdek, bu haftada rejalashtirilgan muhim uchrashuvlari muvaffaqiyatli natijalarga olib keladi. Haftaning so‘nggi kunlarini oila davrasida yaqinlaringiz bilan o‘tkazing.



Qisqichbaqa. Bu hafta kutilmagan xaridlardan o‘zingizni tiyishga harakat qiling. Chunki, kasbingizga oid qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Imkon qadar atrofdagilar bilan ziddiyatli munosabatlarga bormang.



Arslon. Bu hafta kutilmagan muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shu bois his-hayajonlaringizni boshqarib, imkon boricha bosiqlik bilan harakat qiling. Og‘ir boshlangan haftaning ikkinchi yarmida atrofdagilar bilan munosabatingiz sami-miylashib, o‘zingizni yengil his qilasiz.



Parizod. Bu hafta o‘zingizga vaqt ajratish uchun qulay fursat. Ishda rag‘batlantirish olish yoki lavozimingiz ko‘tarilishi ehtimoli yuksak. Lekin hissiyotga berilib, xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun har bir ish-harakatni yaxshilab o‘ylab ko‘rib, so‘ngra amalga oshiring.



Tarozi. Dushanba va seshanba kunlarida sarmoyali takliflar olishingiz mumkin. Ayni hafta faol harakatlar davri bo‘lib, kelgusi muvaffaqiyatlarga erishish va faoliyatda yordam beruvchi foydali aloqalarni o‘rnatish uchun yaxshi imkoniyatdir.



Chayon. Ko‘ngil hotirjamligi va sokinlikdan, sevimli ishingizdan va yoqimli insonlar bilan muloqotdan bahra oling. Haftaning ikkinchi yarmi istiqbolli rejalar uchun samarali davr, uni qo‘ldan boy bermaslikka harakat qiling. Dam olish kunlari yaqinlaringizni va keksalarni ziyorat qilishni kanda qilmang.



O‘qotar. Hafta yakunigacha to‘planib qolgan barcha ishlarni hal etishga harakat qiling. Vaqt o‘tishi bilan ularni bajarish qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. O‘zingiz uchun vaqt ajrating, masalan, kechki sayrga chiqing. Oilaviy shahar tashqarisiga chiqish yoki kichik bir sayohat uyushtirish mumkin.



Tog‘ echkisi. Ba’zi ishlar ko‘ngildagidek ketmayotgan bo‘lsa, tushkunlik va umidsizlikka tushmang. Tez orada bularning hammasi yaxshilikka bo‘lganini anglab yetasiz. Shaxsiy hayot borasida hushyor va sinchkov bo‘lgan ma’qul. Bu hafta ish bilan bog‘liq uchrashuvlar uchun muvaffaqiyatli davr hisoblanadi. Omadingizni qo‘ldan boy bermaslikka intiling.



Qovg‘a. So‘nggi davrda o‘zingizga juda kam vaqt ajratyapsiz. Salomatlik va tashqi ko‘rinishga jiddiy e’tibor qarating, shunda ko‘tarinki kayfiyatga ham ega bo‘lasiz. Bu haftada yirik pul aylanmalari bilan bog‘liq harakatlarni amalga oshirish tavsiya etilmaydi. Aksincha, ayni damda mablag‘ sarflash emas, pul yig‘ish lozim bo‘ladi.



Baliq. Bu hafta katta daromadni va’da qilmoqda. Yaxshigina pul ishlab olish taklifi kelib tushsa, bunday imkoniyatdan foydalanib qoling. Yaqinlar bilan munosabatda odatdagidan muloyimroq va mehribon bo‘ling. Ularga ayni damda sizning qo‘llab-quvvatlashingiz juda zarur.

BIR QO‘SHIQ TARIXI

«ENDI BIZDA YO‘Q OROM»

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti G‘ulomjon Yoqubov 50 yildan ortiq vaqt mobaynida katta sahnada ijod qilib keladi. Uning qo‘shiqlar repertuarida muhabbat, go‘zallik, Vatan madhi ustuvor sanaladi.

G‘ulomjon Yoqubov ijodini dastlab milliy qo‘shiqchilik yo‘nalishida boshlagan. Estrada yo‘nalishiga kirib kelishiga esa o‘sha mashhur «Dilorom» qo‘shig‘i sabab bo‘lgan. Bu qo‘shiq bastakor Alisher Rasulov, shoir Muhammad Yusuf hamda xonanda hamkorligida yaratilgan.

Kunlarning birida Alisher Rasulov G‘ulomjon Yoqubovga qarata:

– Bir qo‘shiq bor-u, ammo sizga to‘g‘ri kelmaydi-da, – deydi.

– Iye, yaxshi qo‘shiq bo‘lsa, nega to‘g‘ri kelmas ekan, bu nima deganing? – deydi hofiz.

– Chunki bu estrada yo‘nalishida, siz esa milliy yo‘nalishda ijod qilasiz. Muxlislar qabul qila olmaydimi, deb cho‘chiyapman. Tanqidlarga uchrab, mavqeingizni tushirmang, deyman-da.

– Qani, avval bir eshitay-chi, – deydi «Dilorom» qo‘shig‘ini qo‘yib beradi.

– Shu ashula meniki! – deydi hofiz. – Lekin so‘zlari ma’qul emas.

Ikki ijodkor bahslashib turishganining ustiga shoir Muhammad Yusuf kirib qoladi.

– Menga mana shu qo‘shiq uchun so‘zlar kerak, – deydi unga qarata hofiz.

– Shungami, – deydi shoir ajablangandek. Qo‘lini peshonasiga qo‘yib, biroz o‘yga toladi. – Yaxshi, bugun kechga tayyor bo‘ladi, ammo soatini aytolmayman. Tayyor bo‘lishi bilan qo‘ng‘iroq qilaman, kelib olib ketasiz.

O‘sha kuni tunda, soat 3 da shoir xonandaga qo‘ng‘iroq qilib she’r tayyor bo‘lganini, kelib olib ketishini aytadi. Xonanda o‘sha zahotiyoq Nazarbekdan shoirning uyi tomon — Darxonga yo‘lga chiqadi. Ijod ustida o‘tirgan shoirdan she’rni olib o‘qib chiqadi, xonandaning ko‘ngli jiz etib, unga minnatdorlik bildiradi.

Qisqa fursat ichida xonanda repertuaridan yana bitta qo‘shiq – «Dilorom» joy oladi. Ammo negadir muxlislar tomonidan uncha qiziqish bilan kutib olinmaydi, baribir ko‘proq eski ijod namunalaridan kuylashini so‘rashadi. Oradan ikki-uch yil o‘tgach esa kutilmaganda qo‘shiq ommaviylashib ketadi.

— «Dilorom» 1995-yilda yaralgan qo‘shiq, — deydi hofiz. — Bugungi kunda biror davraga kirsam, shu qo‘shiqni aytmagunimcha ruxsat berishmaydi.

Ma’lumot o‘rnida aytish joiz, 1985-yilda G‘ulomjon Yoqubov «Majnuntol» gramplastinkasi uchun «Oltin disk» mukofotiga sazovor bo‘lgan. «Do‘stlik», «El-yurt hurmati» va «Fidokorona xizmatlari uchun» kabi ordenlar bilan mukofotlangan san’atkor bu yil 74 yoshni qarshiladi. U hali-hanuz xalq xizmatida bo‘lishga, muxlislar ko‘nglini olishga harakat qiladi.

Quyida qo‘shiq matnini e’tiboringizga havola etamiz.

Adolat FAYZIYEVA,
o‘z muxbirimiz.



Bir qayrilib, bir boqib,
Ayladingiz bizni rom.
Endi bizda yo‘q orom,
Endi bizda yo‘q orom.

Yelka to‘la sumbulmi,
Sumbul-sumbul sochmi yo?
Kiprik o‘pgan qoshmi u,
Bir juft qaldirg‘ochmi yo?
Aylaylikmi jonnisor,
Beraylikmi boshni yo?

Dilorom, Dilorom,
Siz malika, biz g‘ulom.
Tig‘lar tilsin ko‘ksimni,
Sizdan o‘zgani desam!

Yurak to‘la dardingiz,
Yarmi bo‘lsin bizniki.
Ko‘ngil berdik, biz endi
To o‘lguncha sizniki.

Davlatim yo‘q qo‘limda,
Mungli torimdan bo‘lak.
Qo‘shiqlarim, kuylarim,
Ko‘ngil zorimdan bo‘lak.
Suymasa ham, suysa ham,
Sizdek yorimdan bo‘lak.

Dilorom, Dilorom,
Siz malika, biz g‘ulom.
Tig‘lar tilsin ko‘ksimni,
Sizdan o‘zgani desam!



«ZAKOVAT» SAVOLLARI

Savol: Diyego Xose Fransisko de Paulo Xuan Nepomukeno Krispin Krispiano la Santisima Trinidat Ruis... Ushbu ism-sharif to‘liq bo‘lishi uchun yana ikkita nom zarur. Natijada o‘tgan asrda yashagan mashhur rassomning kimligini bilib olasiz.

* * *

Savol: Yozuvchi Rey Bredberi bu insonga Los-Anjeles merligiga o‘z nomzodini ko‘rsatishni tavsiya qilgan. U esa: «Men o‘zim qirol bo‘lsam, merlik menga nega kerak», deb javob qaytaradi. Haqiqatda ham u 1955-yilda mamlakatda o‘z «qirolligi»ga asos solgandi. Gap kim haqida boryapti?

Ushbu savollarning javobini gazeta sahifalaridan topasiz.

Postda
На посту

MUASSIS:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o‘rinbosarlari –
podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas‘ul kotib –
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –
kapitan
Mixli SAFAROV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –
Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:
71-231-33-88;
Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo‘yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355

Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.
Bank kodi 00014.
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g‘aznachiligi.
Shaxsiy h/v
47001086026287703110117900l
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.
Nashrimizdan ko‘chirib bosilganda manba ko‘rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206 Yunusobod tumani, Yangishahar ko‘chasi 1A-uy.

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Buyurtma №4090.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma taboq. 45785 nusxada chop etildi.
Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:
100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko‘chasi 9-uy.